

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARNI QAYTA TAYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI

## Adabiyotshunoslikda modernistik analiz metodlar klassifikatsiyasi

MODUL BO'YICHA

# O'QUV-USLUBIY MAJMUA



TASHKENT 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**ADABIYOTSHUNOSLIKDA MODERNISTIK  
ANALIZ METODLAR KLASSIFIKATSİYASI**

**moduli uchun**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Malaka oshirish kursi yo'nalishi: O'zbek tili filologiyasi: o'zbek  
adabiyotshunosligi**



**Toshkent – 2025**

*Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.*

**Tuzuvchi:**

**B.Karimov** – filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**S.Meliyev** - filologiya fanlari doktori, professor

**M.Abdullayeva** - filologiya fanlari doktori, professor

**J.Eshonqul** - filologiya fanlari doktori, professor

**A.Oldfield** - professor

*Mazkur o'quv-uslubiy majmua **Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining** qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2024-yil “29”noyabrdagi 4- sonli bayonnoma).*

## MUNDARIJA

<b>T/r</b>	<b>Bo‘limlar</b>	<b>Sahifa</b>
<b>I.</b>	<b>ISHCHI O‘QUV DASTUR</b>	<b>13</b>
<b>II.</b>	<b>MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI</b>	<b>26</b>
<b>III.</b>	<b>NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI</b>	<b>55</b>
<b>IV.</b>	<b>AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI</b>	<b>99</b>
<b>V.</b>	<b>KEYSLAR BANKI</b>	<b>101</b>
<b>VI.</b>	<b>GLOSSARIY</b>	<b>113</b>
<b>VII.</b>	<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI</b>	<b>117</b>
<b>VIII.</b>	<b>TAQRIZ</b>	<b>122</b>

## I. ISHCHI O'QUV DASTUR



## KIRISH

Ushbu ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4307-son va 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5040-son Qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining ta’lim-tarbiya jarayonlarida ma’naviy-ma’rifiy muhit barqarorligini ta’minalash, davlat va jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorligini va daxldorlik tuyg‘ularini oshirish, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslarini o‘zlashtirish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagiadolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlarini amaliyotga tadbiq etish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-

mohiyatini o‘rganish, undagi asosiy o‘zgarishlarni tahlil etish va baholash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishni maqsad qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi milliy ta’lim sohasida o‘ziga xos islohotlarni amalga oshirish bugun dolzarb sanaladi. Hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligini dunyo adabiyotshunosligida mavjud metodlar bilan boyitish uchun oliv o‘quv yurtlarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash yo‘nalishlari bo‘yicha qayta tayyorlash va malaka oshirishning o‘quv dasturlariga dunyodagi eng ilg‘or talqin usullarini egallash lozim bo‘ladi.

Ta’lim sohasidagi odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi talab etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariга javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

“Adabiyotshunoslikda modernistik analiz metodlar klassifikatsiyasi” moduli milliy kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishda jahon adabiyotshunosligidagi modernistik metodlar va ularning klassifikatsiyasiga tegishli ilmiy-nazariy masallar bilan tinglovchilarini tanishtirishni maqsad qilib qo‘yadi.

Adabiyotshunoslik metodlariga xos eng muhim ilmiy-nazariy tamoyillarni mustaqillik davri adabiyoti talqiniga tatbiq etishga erishish mazkur kurs o‘qitishni talab qiladi.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

“Adabiyotshunoslikda modernistik analiz metodlar klassifikatsiyasi” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini jahon adabiyotshunosligida mavjud bo‘lgan yangicha analiz metodlari, ularning klassifikatsiyasi hamda matnga immanent yondashuvning usullari bo‘yicha bilimlarini kengaytirish, shuningdek, ushbu fan doirasida ularda ko‘nikma va malakalarini hosil qilishdan iborat.

#### **Modulning vazifalari:**

- badiiy adabiyotni analiz qilish maqsadini tushuntirish;
- adabiyotshunoslikdagi modernistik metodlari klassifikatsiyasini amalga oshirish;

- germenevtika, retsepsion estetikagadoir qarashlar bilan tanishtirish;
- Muallifga qaratilgan analiz metodlarni muhokama qilish;
- Matnga immanaet yondashuv metodlar mazmun-mohiyati oydinlashtirish;
- Formal va sturktural metodlarnig o‘zaro aloqasini tahlil etish.

### **Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“Adabiyotshunoslikda modernistik analiz metodlar klassifikatsiyasi” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida **tinglovchi**:

- metodlarning adabiyotshunoslik ilmida tutgan o‘rnini;
- adabiyotshunoslik ilmida metodlar klassifikatsiyasini;
- badiiy asar shakliga qaratilgan metodlarni;
- adabiyotshunoslik fani oldiga qo‘yilgan zamoniylarini, fan taraqqiyotining asosiy bosqichlari va funksiyalarini bilishi;
- insonning ma’naviy-axloqiy qiyofasi va estetik didini shakllantirishda o‘qituvchining shaxs sifatidagi qiyofasining ahamiyatini bilishi;
- metodologik masalalar, asarga yondashuv usullariga oid asosiy terminologik tushunchalarni **bilishi** kerak;
- adabiyotshunoslik fanining tarkibiy qismlarini ajrata olishi;
- adabiyot nazariyasi va undagi terminologiya muammolarini yoritib bera olish;
- badiiy asarning formal qirralarini o‘rganadigan metodlarni farqlay olish;
- struktural-analiz metodining asoslari va namoyandalarini bilish;
- g‘arb va sharq adabiyotshusnosligiga xos metodlarni o‘zaro qiyoslay olishi;
- o‘zbek adabiyotshunoslari qo‘llagan metordlarni ajrata bilishi bo‘yicha nazariy bilimlarga ega bo‘lishi;
- tinglovchi adabiyotshunoslik metodlari klassifikatsiyasini adabiy manbalar mohiyatiga mos ravishda qo‘llash, badiiy asarga baho berish va umumlashma xulosalar chiqarish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi;
- adabiy tanqid va adabiy jarayon hodisalarini talqin qilish;
- jahon adabiyotshusnosligida badiiy asarga yondashuvning modernistik usullarini bilish;
- formal metodning o‘ziga xos tarixi, adabiy-nazariy tamoyillari, asoschi-vakillari, davomchi-namoyandalarini bilish;

- formalism va vulgar sotsiologizmni qiyoslay olish;
- sinkretizm davri (musiqa, raqs va she'r uyg'unligi) alohida san'at turi sifatidagi mustaqil ajralish davrini yoritish;
- germenevtik va retsepsion estetik hodisani abdiy asar tahilligia tatbiq eta olishi;
- adabiyotshunoslikdagi modernistik analiz metodlariga tegishli usullarni puxta egallashi, faoliyatida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish **malakalariga** ega bo'lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Adabiyotshunoslikda modernistik analiz metodlar klassifikatsiyasi” moduli ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo’llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;
- o’tkaziladigan amaliy mashg’ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so’rovlardan, test so’rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kolokvium o’tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo’llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyli**

“Adabiyotshunoslikda modernistik analiz metodlar klassifikatsiyasi” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Jahon adabiyotshunoslida yetkachi konsepsiylar” o‘quv moduli bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning adabiyotshunoslikning nazariy-metodologik asoslariga doir kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagи o’rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim va tarbiya jarayonlarini adabiyotshunoslik metodlariga xos tamoyillarni o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo’llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo’ladilar.

**Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti**

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Umumiy o‘quv yuklamasi Soatlari</b>			
		<b>Jami</b>	<b>Auditoriya o‘quv yuklamasi</b>		
			<b>Nazariy</b>	<b>Analit</b>	<b>Ko‘chma mashg‘ulot</b>
1.	Metodlarning adabiyotshunoslik ilmida tutgan o‘rni	<b>2</b>	2		
2.	Adabiyotshunoslik ilmida metodlar klassifikatsiyasi	<b>4</b>	2	2	
3.	Badiiy asarning formal qirralarini o‘rganadigan metodlar	<b>2</b>	2		
4.	Adabiyotshunoslik metodlari orasida badiiy asarning shaklini o‘rganishga qaratilga maxsus metodlar	<b>4</b>	2	2	
5.	Formalizm va vulgar sotsiologizm qiyosi	<b>2</b>		2	
6.	Struktural-analiz metodining asoslari va namoyandalari	<b>2</b>		2	
<b>Jami</b>		<b>16</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	

**NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI****1-mavzu. Metodlarning adabiyotshunoslik ilmida tutgan o‘rni (2 soat)**

Adabiyotshunoslik faning tarkibiy qismlari masalasi; adabiyoti nazariyasи undagi terminologiya muammolari; adabiy tanqid va adabiy jarayon hodisalari talqinlari; adabiyotshunoslik metodologiyasi metodlar jami sifatida; metodolgiyaning yo‘naltiruvchanlik tabiatи va uning adabiy siyosat bilan bog‘liq qirralari.

**2-mavzu: Adabiyotshunoslik ilmida metodlar klassifikatsiyasi (2 soat);**

Jahon adabiyotshunoslida badiiy asarga yondashuvning modernistik usullari ko‘pchilikni tashkil etishi; Xususan:

- 1.Sotsiologik yondashuv;
- 2.Gneseologik yondashuv;
- 3.Tarixiy-madaniy yondashuv;
- 4.Qiyosiy-tarixiy yondashuv;
- 5.Biografik yondashuv;
- 6.Ijodiy-genetik yondashuv;
- 7.Ontologik yondashuv va boshqa ko‘pab metodlar mavjudligi.

**3- mavzu: Badiiy asarning formal qirralarini o‘rganadigan metodlar (2 soat)**

Formal metodning o‘ziga xos tarixi, adabiy-nazariy tamoyillari, asoschivakillari, davomchi-namoyandalari mavjud ekani;

Tematologiya, mifopoetika, psichoanaliz, psixobiografiyanig o‘ziga xos jihatlari. Nemis olimi Marien Krisebaxning “Methoden der Literaturwissenschaft” nomli kitobida adabiyotshunoslikdagi quyidagi metodlar ko‘rsatib o‘tiladi:

- 1.Positivistische Methode (Pozitivistik metod);
2. Geistesgeschichtliche Methode (Ijtimoiy-tarixiy metod);
3. Phanomenologische Methode (Fenemologik metod);
4. Existentielle Methode (Ekzistensional metod);
5. Morphologische Methode (Morfolgik metod);
6. Soziologische Methode (Sotsiologik metod)
7. Statistische Methode (Statistik metod)
8. Strukturalistische Methode (Sturktural metod).

**4- mavzu: Adabiyotshunoslik metodlari orasida badiiy asarning shaklini o‘rganishga qaratilga maxsus metodlar**

Adabiyotshunoslik metodlari orasida badiiy asarning shaklini o‘rganishga qaratilga maxsus metodlarning mavjudligi. Adabiyotshunoslikdagi badiiy asar shakligi qaratilgan metodlar shakliy-kompozitsion unsurlarga eng muhim nazariyestetik kategoriya sifatida qarashi;

**AMALIY MASHG‘ULOTLAR**

Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy didaktik ta’minot va laboratoriya

jihozlariga ega bo‘lgan auditoriyalarda hamda Internet tarmog‘iga ulangan kompyuter sinflarida, tayanch oliy ta’lim muassasalarining kafedralarida tashkil etiladi.

**1-mavzu: Adabiyotshunoslik ilmida metodlar klassifikatsiyasi(Badiiy asar kontekstiga qaratilgan metodlar masalasi (2 soat);**

**Reja:**

1. Badiiy asar matnini sotsiologik metod asosida tahlil etishning ilmiy-nazariy tamoyillarini aniqlash;
2. Adabiyotshunoslikda vulgar sotsiologizm hodisasi tarixini o‘rganib chiqish;
3. Qiyosiy va qiyosiy-tarixiy metodga doir manbalar muhokamasi;
4. O‘zbek adabiyotshunoslida badiiy asarni qiyosiy-tipologik asosda talqin etilgan adabiy-ilmiy manbalar tahlili;
5. Adabiyotshunoslikda intertekstuallik: badiiy va ilmiy asarlar talqini;

**2-mavzu: Adabiyotshunoslik metodlari orasida badiiy asarning shaklini o‘rganishga qaratilga maxsus metodlar. (2 soat)**

**Reja:**

1. Yozuvchi, badiiy asar va kitobxon munosabati xususida;
2. Badiiy ijod namunalarini germenevtik talqin etish tajribasi;
3. Germenevtik metodga doir ilmiy-nazariy tushunchalar muhokamasi;
4. Badiiy asarni qabul qilish masalasi: retsepcion estetika va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Adabiyotshunoslik metodlari orasida badiiy asarning shaklini o‘rganishga qaratilga maxsus metodlarning mavjudligi. Adabiyotshunoslida badiiy asar shakligi qaratilgan metodlar shakliy-kompozitsion unsurlarga eng muhim nazariy-estetik kategoriya sifatida qarashi

**3-mavzu: Formalizm va vulgar sotsiologizm qiyosi (2 soat)**

**Reja:**

1. O‘zbek adabiyotshunoslida turli adabiyotshunoslik metodlari mavjudligini aniqlash mashg‘uloti;
2. Badiiy asar matnini sotsiologik metod asosida tahlil etishning ilmiy-nazariy tamoyillarini aniqlash;
3. Adabiyotshunoslikda vulgar sotsiologizm hodisasi tarixini o‘rganib chiqish;
4. Adabiy-ilmiy hodisa va uni nomlash masalasi;

5. Badiiy asarga ijtimoiy yondashuv usuli ommalashgani sabablarini muhokama qilish;
6. O‘zbek adabiyotshunoslige muqtaqillik yillarda kirib kelgan modernistik metodlarni o‘rganish tajribasi;
7. Yangicha ilmiy-tadqiqot metodlarga asos bo‘ladigan mavjud adabiy hodisalar bahsi.

**4-mavzu: Struktural-analiz metodining asoslari va namoyandalari (2 soat)**

1. Struktural-analiz metodining imkoniyatlari.
2. Adabiy-ilmiy hodisa va uni nomlash masalasi;
3. Badiiy asarga ijtimoiy yondashuv usuli ommalashgani sabablarini muhokama qilish;
4. O‘zbek adabiyotshunoslige muqtaqillik yillarda kirib kelgan modernistik metodlarni o‘rganish tajribasi;
5. Yangicha ilmiy-tadqiqot metodlarga asos bo‘ladigan mavjud adabiy hodisalar bahsi.
6. Statistische Methode (Statistik metod)
7. Strukturalistische Methode (Sturktural metod).

### **MUSTAQIL TA’LIM**

#### **Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakklardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- fan doirasida amaliy mashg‘ulot uchun yangi manbalar izlab topish va o‘zlashtirish;
- dunyo adabiyotshunoslidagi badiiy asarga yangicha yondashuv metodlari ustida izlanishlar olib borish;
- aniq bir badiiy asar talqiniga olingan nazariy bilimlarni tatbiq etish;
- badiiy asarni metodlar uyg‘unligi asosida tahlil etishni chuqr o‘rganish.

**II. MODULNI O'QITISHDA  
FOYDALANILGAN INTERFAOL TA'LIM  
METODLARI**



### “SWOT-tahlil” metodi

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

<b>S (strength)</b>	- kuchli tomonlari
<b>W (weakness)</b>	- zaif, kuchsiz tomonlari
<b>O (opportunity)</b>	- imkoniyatlari
<b>T (threat)</b>	- to‘siqlar

**Namuna:** Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

<b>S</b>	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchli tomonlari.	Maksimal aniqlik bilan har tomonlama xolis xulosa chiqarishi.
<b>W</b>	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlilning kuchsiz tomonlari.	Badiiy matndagi tuyg‘ular tahlilini to‘la amalga oshirib bo‘lmaydi.
<b>O</b>	Mumtoz matnlar bo‘yicha struktural tahlil (ichki) imkoniyatlari.	Shakl va mundarijaning har bir komponentlarini jiddiy mikrotahlildan o‘tkaziladi.
<b>T</b>	To‘siqlar (tashqi).	Struktural poetika bo‘yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi.

## “Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### ***Metodni amalgalash tartibi:***



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallari tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

**Namuna:**

<b>Badiiy tahlil tizimlari</b>					
<b>Germenevtik tahlil (talqin)</b>		<b>Struktural (tarkibiy) tahlil</b>		<b>Lisoniy tahlil</b>	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>					

**“Keys-stadi” metodi**

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

**“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari**

<b>Ish bosqichlari</b>	<b>Faoliyat shakli va mazmuni</b>
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audiovizual harakat;</li> <li>✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> </ul>

	✓ muammolarni aniqlash
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
<b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

**Keys. Kichikroq badiiy (she’riy) matnni tahlil qilish uchun** ko‘rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobjiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

### ***Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:***

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

## “FSMU” metodi

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiylik fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uygaga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

**Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

<b>F</b>	- <b>fikringizni bayon eting</b>
<b>S</b>	- <b>fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating</b>
<b>M</b>	- <b>ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring</b>
<b>U</b>	- <b>fikringizni umumlashtiring</b>

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

**Namuna:Fikr:** “Struktural tahlil asosida mavjud matnni mantiqan qismlarga ajratish va uni yig‘ish yotadi”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

### **“Assesment” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o’zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mayjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o’zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘srimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna:** Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



“Struktura” deganda nimani tushunasiz?

- A. Yunoncha so‘z bo‘lib, tarkib ma’nosini anglatadi.
- B. Inglizcha so‘z bo‘lib, tahlil ma’nosini anglatadi.
- C. Yunoncha so‘z bo‘lib, talqin degan ma’noni anglatadi.
- D. Lotincha so‘z bo‘lib, badiiy asar matnini anglatadi.



“Struktural tahlil” qanday tahlil turi?

- A. “Struktural tahlil” badiiy tahlil turi.
- B. “Struktural tahlil” ilmiy tahlil turi.
- C. “Struktural tahlil” tanqidiy tahlil turi.
- D. “Struktural tahlil” badiiy asarni tarkilash orqali tahlil qilishdir.



“Struktural metod”ning lug‘aviy ma’nosini bilasizmi?

- A. “Struktura – tarkib”, “metod - fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- B. “Struktura - tarkib”, “metod – ijod turi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi
- C. “Struktura – tahlil”, “metod - fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma’noni anglatadi.
- D. “Struktura - talqin”, “metod – ilmiy izlanish” kabi lug‘aviy ma’no beradi.



Badiiy matn ilmiy matndan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

- A. Badiiy matn obraz yaratish orqali shakllanriladi, ilmiy matnda tushuncha va atamalar asosida fikr yuritiladi.
- B. Badiiy matn roman va hikoyalar matni, ilmiy matn esa dissertatsiyadir.
- C. Badiiy matn ijodiy tasavvur orqali yaratiladi, ilmiy matn ilmiy tafakkur asosiga quriladi.
- D. Badiiy matn vazn va qofiyaga asoslanadi.

### “Tushunchalar tahlili” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini

mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo’llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘gri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

### **Namuna:**

“Moduldagи tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchala r	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo’shimcha ma’lumot
Badiiy matn	Nobadiiy matndan hissiy-impressiv va nutqning bo‘yoqdorligi va obrazli tafakkur bilan farq qiladi	
Struktur a	Tarkib. Badiiy matn tarkibi (qurilishi), uning qismlarga ajratib tahlil qilish	
Badiiy timsol (obraz)	Aniq va shu bilan birga umumlashtirish xarakteriga ega bo‘lgan badiiy manzara yoki siymo yaratish	
Adabiy tur	Matnni ifoda xususiyatiga ko‘ra farqlash	
Adabiy janr	O‘z ifoda shakliga, vazn birliklariga va qofiyalanish tizimiga ega bo‘lgan mustaqil shakliy ifodalanish	
Ritm, Ritmika	Bir maromda takrorlanib turuvchi nutqiy harakat va uni o‘rganuvchi soha	

Uslug	Muallif ijodining yoki badiiy matnning bektakror o‘ziga xosligi	
-------	---	--

**Izoh:** Ikkinci ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘sishma ma’lumot glossariyda keltirilgan.


### **“Venn diagrammasi” metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

**Namuna:** Ifoda shakllari bo‘yicha (she’riy va nasriy nutq).



### **“Blits-o‘yin” metodi**

**Metodning maqsadi:** tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.


#### **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi “yakka baho” kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.
2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.
4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo‘lsa “0”, mos kelsa “1” ball qo‘yish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridaan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.
5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridaan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

**Struktural tahlil ketma–ketligini aniqlash. O‘zingizni tekshirib ko‘ring!**

Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To‘g‘ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Matnning tashqi strukturasi					
Matnning ichki qurilishi					
Matnni o‘z yozuvida o‘qish tajribasi					
Matnni o‘z tilida o‘qib tushunish (lug‘at va izoh)					
Matn qismlarining dastlabki talqini					
Qismlarga ajratilib tahlil qilingan matnning mantiqiy butunligi					




Grafik organayzer talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan


muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yich yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo‘llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

- 1 • Talabalar ikki guruhga bo‘linadi
- 2 • Yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish mohiyatini aks ettiruvchi sxema chiziladi
- 3 • Har bir guruhga o‘zlashtirilayotgan mavzu (bo‘lim, bob) yuzasidan alohida topshiriq beriladi
- 4 • Topshiriqlar bajarilgach, guruh a'zolari orasidan liderlar tanlanadi
- 5 • Liderlar guruh a'zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to‘ldiradi



### **III. NAZARIY MASHG'ULOT MAZMUNI**



**1-MAVZU:**

**METODLARNING ADABIYOTSHUNOSLIK ILMIDA  
TUTGAN O'RNI**

**REJA:**

1. *Zamonaviy va mustaqillik davri adabiyotshunoslig xususida*
2. *Adabiyotshunoslikining asosiy tamoyillari*
3. *Metod va metodologiyaning o'zbek adabiyotshunosligiga kirib kelishi*
4. *Adabiyotshunoslikda ijodiy muhit va iste'dod qadri*

**Tayanch tushunchalar:** Dunyo ilm-fanida mavjud metodlarining o'zbek adabiyotshunosligiga kirib kelishi va qo'llanilishi, zamonaviy adabiyot, mustaqillik, mustaqillik davri adabiyotshunosligi, adabiyotshunoslik asosi, tamoyil, tahlil, metod, metodologiya, ijodiy muhit, iste'dod qadri.

**Zamonaviy va mustaqillik davri adabiyoti.** Nemis olimi Mariyen Krisebaxning “Methoden der Literaturwissenschaft” (“Adabiyotshunoslik metodlari”) nomli kitobida quyidagi tasnifni beradi:

1. Positivistische Methode (Pozitivistik metod);
2. Geistesgeschichtliche Methode (Ijtimoiy-tarixiy metod);
3. Phanomenologische Methode (Fenemologik metod);
4. Existentielle Methode (Ekzistensional metod);
5. Morphologische Methode (Morfologik metod);
6. Soziologische Methode (Sosiologik metod);
7. Statistische Methode (Statistik metod);

8. Strukturalistische Methode (Sturktural metod)<sup>1</sup>.

Rus adabiyotshunoslida badiiy asarga yondashuv usullarini Yu.Borev quyidagi tarzda tasniflaydi:

- 1.Sosiologik yondashuv;
- 2.Gneseologik yondashuv;
- 3.Tarixiy-madaniy yondashuv;
- 4.Qiyosiy-tarixiy yondashuv;
- 5.Biografik yondashuv;
- 6.Ijodiy-genetik yondashuv;
- 7.Ontologik yondashuv.

Y.Borev shu mavzuga oid kitobida bunday yondashuvlarga xos xususiyatlarni bat afsil yoritib beradi<sup>2</sup>.

#### *Adabiyotshunoslikining asosiy tamoyillari.*

Adabiyotshunos olim Abdug‘afur Rasulov filolog-magistrlar uchun yozgan “Badiiy asarga yondashuv asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmasida asosan badiiy asarga “tarixiy-biografik” hamda “tarixiy-funksional” yondashuvni o‘zbek adabiyoti manbalari asosida yoritadi<sup>3</sup>. Shu o‘rinda bugungi o‘zbek adabiyotshunoslida adabiyotshunoslik metodlari, ularning tarixi, tahlil tamoyillariga qiziqish kuchayganini, bu xususda ayrim maqolalar yozilganini ta’kidlash lozim<sup>4</sup>.

Har qanday ta’lim tizimi davrga bog‘lanishi lozim. O‘zbek adabiyotshunoslari dunyo adabiyotshunoslidagi turli adabiy nazariyalarni, badiiy asarga yondashuv usullarini, metod va metodologiyalarni o‘rgangandan keyin o‘z davri va muhitiga nazar tashlashlari zarur bo‘ladi. Mazur mavzu

<sup>1</sup> Maren-Griesebach. Methoden der literaturwissenschaft. Stuttgart. 1992.

<sup>2</sup> Борев Ю. Искусство интерпретации и оценки. -М., 1981. Стр.47-66.

<sup>3</sup> Расулов А. Бадиий асарга ёндашув асослари. -Т., 2003, 43-бет.

<sup>4</sup> А.Расулов. Танқид, талқин, баҳолаш. –Т.: Фан, 2006.; С.Мели. “Янги танқид” // “Шарқ юлдузи” журнали. 2010., №4; У.Жўрақулов. Ҳудудсиз жилва. –Т.: “Фан”, 2006.; Эшонбобоев А. Қиёсий-тариҳий метод ҳақида // “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. 2008 йил. № 2.

o‘qitilishida zamonaviy adabiyotshunoslikda kechayotgan yangilanish jarayonlari va mavjud muammolarga alohida urg‘u beriladi.

Mustaqillik yillaridagi o‘zbek adabiyotining holiga nazar tashlash zarur. Nashr qilinayotgan yangi nasriy, nazmiy, adabiy-tanqidiy asarlarning adabiy jarayon va adabiyot tarixigdagi o‘rni masalasi muhokama uchun mavzu bo‘ladi.

Ma’ruzada zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligidagi yetakchi tamoyillarga e’tibor qaratiladi. O‘zbek adabiyotshunos olimlarining kitoblari metodlar nuqtai nazaridan analiz qilinadi. Zotan metod muayyan tanlangan ilmiy-tadqiqot yo‘li bo‘lib, hozirgi davr o‘zbek adabiyoti namunalarini tahlil etishga yordam berishi lozim. Ob’yektga yondashuvning tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik usullari tushunchasini oydinlashtirish zarur. Ob’yektga tarixiy, milliy, umuminsoniy, mustaqillik g‘oyasi nuqtai nazaridan yondashuv masalalarini muhokama etish kerak.

### ***Metod va metodologiyaning o‘zbek adabiyotshunosligiga kirib kelishi.***

Yangi asrdagi “o‘zbek modernist” shoirlarning izlanishlari rus formalistlarining tajribalarini esga soladi. Xat boshi yoki tinish belgilariga e’tibor bermaslik, qofiya va vaznda erkin bo‘lish, turli geometrik belgilarni so‘zlar bilan yonma-yon qo‘yish – bularning barchasi keng ma’noda shakldagi o‘zgarishlardir. Bu kabi tajribalarga semiotik usulda, formal yoki struktural analiz metodlari asosida yondashuv o‘z samaralarini beradi. Shoirlar o‘zbek milliy poetik tafakkuri tabiatidan kelib chiqib orginallikka intilayotgan ekan, adabiyotshunos olimlar ham dunyo olimlarining adabiy-nazariy qarashlardan boxabar bo‘lgan holda o‘sha yangi hodisalarni munosib o‘zbekona ilmiy istilohlar bilan atashlari, ular talqiniga mos metodlar kashf etishlari lozim bo‘ladi. Aks holda ergashuvchanlik, taqlid, ko‘chirmasuyarlik, iqtibosparastlik o‘zbek adabiyotshunoslaring jahonga chiqish orzulariga xalaqit berishi mumkin.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunoslida qiyosiy-tarixiy yo‘nalishda bir qator e’tiborga molik tadqiqotlar yuzaga keldi. Ularda o‘zbek adabiyoti mintaqadagi qardosh xalqlar adabiyoti namunalari bilan qiyosiy o‘rganilib, bir qator nazariy umumlashmalar chiqarilgan.

Qiyosiy-tarixiy metoda yozilgan o‘zbek adabiyotshunoslarining tadqiqotlarida milliy adabiyotimizni dunyo adabiyoti durdonalari bilan taqqoslash, o‘zaro o‘xhash va farqli jihatlarini kuzatish hamda ta’sirlanuv omillarini ko‘rsatish holatlari ko‘zga tashlanadi.

Umuman olganda, qiyosiy adabiyotshunoslik har bir milliy adabiyotni jahon adabiyotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko‘radi va tahlil etadi. Bu esa, o‘z navbatida, muyyan bir adabiyotni jahon adabiyoti tarixida tutgan o‘rnini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoshunosligening turli avlodiga mansub olimlari o‘zlarining ilmiy maqolalari, tadqiqot va monografiyalarida psixologik metod tamoyillariga, psixologik tasvir vositalariga, ijodkor psixologiyasi va, umuman, psichoanalizga e’tibor berishdi. Shu bilan birga, ayrim adabiyotshunoslar, munaqqidlar ijodida boshqa tadqiqot usullari bilan birgalikda ayni metoddan o‘rnio‘rni bilan foydalanish holatlari kuzatiladi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunoslida germenevtikaning tutgan o‘rni va ishlanish doirasi, albatta, qoniqarli emas. Jahon adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligi badiiy asar matnini tushunish, tushuntirish va talqin qilishda muayyan prinsiplarga amal qiladi. Germenevtika asosida ish ko‘rilganda matn mohiyati soxtalashtirilib, qandaydir o‘tkinchi mafkuraviy manfaatlarga qurban qilinmaydi. Badiiy asarni har kim o‘zicha, o‘z dunyoqarashiga mos bilimi va hayotiy tajribasi darajasida tushunadi, his etadi. Asarda yo‘q narsa izlanmaydi, bor narsa berkitilmaydi. Lozim o‘rinda butun diqqat-e’tibor aniq bir muammoga qaratiladi.

***Adabiyotshunoslikda ijodiy muhit va iste'dod qadri.***

Germenevtikada badiiy asarning ko‘pma’noliligi muhim. Bunday asarni turlicha tushunish va tushuntirish imkonini bo‘ladi. Bunday asar, ehtimol,biribiriga o‘xshamaydigan talqin tiplarini maydonga keltiradi. Ko‘pma’noli badiiy asarning muallif pozisiyasini topish qiyin bo‘ladi. R.Bart ta’biri bilan aytganda “muallif o‘lgan” sanaladi. Hammaga tushunarli bo‘lgan bitta ma’noga ega asarlar germenevtik ta’limot uchun qiziqarli emas.

Germenevtik usul olimga matnni talqin etishning nazariy-metodologik usullarini ko‘rsatadi. Badiiy matndagi qahramonlarni talqin etayotganda, lozim bo‘lsa, adabiyotshunos ularni o‘z shaxsiyati bilan taqqoslaydi - identifikasiyadan keng foydalanadi. Germenevtik doira vositasida matnning «ichiga kirishi», qismlarga ajaratishi va qayta jamlab xulosalar chiqarishi mumkin bo‘ladi.

Bu ta’limotining qator afzalliklari borligi shubhasizdir. Ammo haqiqatni kashf etishning yagona yo‘li ham emas.

Aslida bugun o‘zbek adabiyotshunosligi jahon ilm-fanidagi eng ilg‘or nazariy-falsafiy mezonlardan iste’foda etib, G‘arb va Sharq adabiyotshunosligini sintezlashtirib, o‘ziga xos fundamental yo‘lga chiqishi uchun imkoniyat paydo bo‘ldi.

***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. Zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi eng faol ijodkorlar kimlar?
2. Mustaqillik davri adabiyotiga qanday metodlar bilan yondashish lozim?
3. Bugungi adabiyotning qaysi jihatlariga tanqidiy nuqtai nazarda qarash kerak bo‘ladi?

***FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:***

1. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. М. 1989.
2. Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. М. 1986.
3. Зарубежная эстетика и теория литературы XIX-XX вв.-М. 1998.
4. Каримов Б. “Адабиётшунослик методологияси”. Т. “Мұхаррір” нашриёти. 2011.
5. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. «Фан», 2006.
6. Розенталь М. Против вульгарной социологии в литературной теории. – М. 1936.
7. Сакулин П.Н. “Социологический метод в литературведении”// Футурология и культурология. М.1999.
8. Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. Тошкент. “Академнашр”. 2011.
9. “Ўзбек адабий танқиди” Антология. -Т., “Turon-Iqbol”. 2011.

***2-MAVZU:******ADABIYOTSHUNOSLIK ILMIDA  
METODLAR KLOSSIFIKATSİYASI******REJA:***

5. *Adabiyotshunoslik metodologiyasi va adabiyot nazariyasi*
6. *Metod va metodologiya bahslari xususida*
7. *Adabiyotshunoslikdagi metodlar xilma xilligi*
8. *Badiiy asarni turli aspektlarda o‘rganish yo‘llari*
9. *Metodlar tasnifi*

**Tayanch tushunchalar:** “Metod” tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari, adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, xronologiya, dunyoqarash, estetika, tarixiy madaniy, qiyosiy-tarixiy, genetik, immanent.

### ***Adabiyotshunoslik metodologiyasi va adabiyot nazariyasi.***

Adabiyotshunoslikda metodlar turlicha tasnif qilinadi. Shulardan biri quyidagicha ko‘rinishga ega:

1. Sotsiologik yondashuv;
2. Gneseologik yondashuv;
3. Tarixiy-madaniy yondashuv;
4. Qiyosiy-tarixiy yondashuv;
5. Biografik yondashuv;
6. Ijodiy-genetik yondashuv;
7. Ontologik yondashuv.

Adabiyotshunoslikda talqin yo‘llarining ko‘pligi, har bir metodning o‘ziga xos xususiyatlari. Bundan tashqari yuqoridagi metodlar guruhlashтирilган holda ham muayyan tasnifga ega, albatta.

Adabiyotshunoslikda badiiy asarlarni talqin qiladigan metodlarni tasniflash muhim sanaladi. Badiiy asarni tahlili va talqini uchun adabiyotshunos olma turli usullardan foydalanadi. Dunyo adabiyotshunosligida badiiy asarga yondashuvning ko‘plab usullari mavjud. Har bir metodning nazariy asoslari, asoschilar, talqindagi individual qirralari farqlanadi.

Metodologiya tadqiqotchiga yo‘nalish beradi. Bu soha olimning shaxsiy izlanishlari davrida shakllanib muqimlashadi. Natijada ob’ekning qaysi jihatlarini qanday metod asosida bajarish lozimligi ko‘rinadi. Metodlar nisbatan neytral bo‘lib qolishi ham mumkin, ya’ni aniq bir metoddan turli dunyoqarashga ega olim badiiy asar talqinida o‘z ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda foydalandi.

***Metod va metodologiya bahslari xususida.***

Har qanday adabiyotshunoslikka oid tadqiqotda yetakchi-ustivor va individual metodlarni farqlash joiz. Zero, ular aniq ilmiy vazifa qarshisida o‘zlarining o‘rinlarini boshqalari bilan almashtirishlari ham mumkin. Kompleks analiz umumlashtiruvchi metod sifatida asosan tarixiy-adabiy muhit, muayyan millat yoki davr adabiyoti tarixi yuzasidan muayyan xulosalar chiqarish uchun qo‘llanilsa, nisbatan individual metod ijodkorning mahoratini, ruhiy holati yoki estetik qarashlarini, badiiy asar tili, strukturasi, ritmi yoki individual uslubini tekshishga joriy qilinadi.

Yu.B.Borev metod tushunchasiga fikrlash usuli (sposob mishlenie), metodologiya tushunchasiga metod nazariyasi (teoriya metoda), metodika tushunchasiga metodning xususiy usullari tizimi tarzida qaraydi. Agar ilmiynazariy qarashlar tatbiq qilinayotgan ob’ektga mos-muvofiq kelsa, bunday yondashuv metodologik jihatdan juda yaxshi natija beradi. Metod ana shu muvofiqlik asosni tashkil etadi.

Adabiyotshunoslik metodologiyasida quyidagi faktorlar muhim sanaladi:

1. Avvalo badiiy asar bo‘lishi lozim. Bunda adabiy jarayon va uning qonuniyatlari yoki badiiy asar va uning xususiyatlari tadqiq etiladi.
2. Adabiyotshunoslik metodologiyasi zamonaviy adabiyot tajribasiga tayanadi. Bu soha uchun badiiy kashfiyotlar muhim rol o‘ynaydi. Umuman, adabiyotshunoslikdagi ichki yondashuvlar, tahlil va talqin usullarining imkoniyatlari original badiiy kashfiyotlar evaziga kengayib boradi.
3. Metodologiyada muayyan dunyoqarash ustivor bo‘ladi. Shu dunyoqarash vositasida ob’ekti tadqiq qilinadi.
4. Metodologiya uchun tarixiylik tamoyili muhim sanaladi.

Adabiyotshunoslik metodologiyasi boshqa fan sohalarining yutuqlariga suyanadi. Sotsiologiya bilan aloqador. Matn ritmikasini o‘rganishda, statistik

usulda tabiiy fanlar bilan bog‘lanadi. Semiotik, immanent analizda lingvistika yutuqlariga tayanadi<sup>5</sup>.

### *Adabiyotshunoslikdagi metodlar xilma xilligi.*

Metodologiya uchun “nima uchun”, “nima” va “qanday” degan muhim savollar bor. Masalan, adabiy-tanqidiy tahlilda adabiy manba, badiiy matn nima uchun, nima maqsadda tekshiriladi? Bu savolga javob kerak. Tadqiqotchi yozuvchi va voqelikni tekshiradimi, badiiy asarning poetik darajasini aniqlaydimi, muallifning badiiy mahoratiga, san’atkorligiga baho beradimi? Bu turdagи masalalar metodologik jihatdan tahlilning “nima uchun” degan qismini tashkil etadi. Adabiy-nazariy tahlilda aynan “nima” tadqiq qilinadi? Shakl, mazmun, uslub, g‘oya, til, badiiy konsepsiya, janr, asarning yaratilish tarixi, avtor ruhiyati va badiiy psixologizm, traditsiya va novatorlik – “nima”ni tadqiq etish kerak? Bu ikki masala metodologik jihatdan oydinlashtirilgandan keyin uni “qanday” tadqiq etadi, degan savol tabiiy shu yuqoridaq iкki holat javobidan kelib chiqadi. Zотан, badiiy matndagi 1) ko‘p aspektli - bir yo‘la bir necha jihat tekshirilishi va yoki 2) uning bitta qirrasi o‘rganilishi mumkin. Buni tadqiqotchi o‘zi bilim darjasи, dunyoqarashi, ichki sezim - intuitsiyasi bilan belgilab oladi. Adabiyotshunoslik ilmi muayyan adabiy hodisaga 1) xronologik 2) muammoli 3) janr xususiyatiga ko‘ra yondashishi mumkin. Adabiyotshunoslik ilmining iкki katta tarkibiy qismi - adabiyot tarixi va adabiyot nazariyasiga e’tibor berilganda ham ular ma’lum bir ichki tartibga ega ekani ko‘rinadi. Masalan, adabiyot tarixi eng avvalo iкki tamoyil asosida - xronologik (qadimgi, o‘rta asrlar, yangi tipdagi davrlashtirish) va makoniy belgi (ma’lum bir mamlakat adabiyoti tarixi, ma’lum bir region adabiyoti tarixi, ma’lum bir etnik jihatdan yaqin bo‘lgan xalqlar adabiyoti tarixi, dunyo adabiyoti tarixi) nuqtai nazaridan metodologik asosda farqlanadi. Bu har iкki

---

<sup>5</sup> Борев Ю. Искусство интерпретации и оценки. -М.: 1981. Стр. 36-37.

farqni qamrab olgan adabiyot tarixi ichkarisida ma'lum bir masalalar yuzasidan, masalan, adabiy oqimlar-yo'nalishlar tarixini o'rganish (klassitsizm, romantizm, tanqidiy realizm, realizm, modernizm), alohida olingan janrlar tarixini o'rganish (epos, roman, tragediya, g'azal), yirik adiblar ijodini o'rganish (shekispirshunoslik, navoiyshunolik, qodiriyshunoslik) yuzasidan ham tarmoqlanishi mumkin.

***Badiiy asarni turli aspektlarda o'rganish yo'llari.***

“Adabiyot nazariyasi”dan ma'lumki, ijodiy metod – bu ijodkorning dunyoga qarashiga oid tushuncha bo'lib, borliq, inson, voqeа-hodisalar munosabatini belgilaydi. Adabiyotshunoslik metodlari esa bevosita adabiyotshunos olimning adabiy-ilmiy matnni bilishi, tushunishi va tushuntirishiga tegishli ilmiy tushunchalar tizimidir.

Adabiyotshunoslik metodlarini fanda “usul”, “yondashuv”, tarzida turlicha nomlash hamda turlicha tasniflash mavjud. Tabiiyki, yaxlit hodisani qismlarga jaratib o'rganish, ma'lum bir asosiga ko'ra tasniflash voqelikni anglashga yordam beradi. Adabiyotshunoslik metodlaridan biri tadqiqot jarayonida yetakchilik qilishi mumkin. Shu tamoyilga qarab tadqiqot ishining qaysi metodda yozilgani aniqlanadi. Bitta ilmiy ishda, maqola yoki ilmiy risola, monografiyada bir necha metodlar qorishiq holda kelishi ham mumkin. Metodlar orasiga birlashmas, o'zaro kesishmas tarzidagi chegara qo'yish to'g'ri bo'lmaydi. Zero, badiiy matnga nisbatan barcha, bir necha metodlarni qo'llab, juda ko'p qirralar komplek usulda oydinlashtirilishi, tushuntirilishi ham ilmda bor hodisadir.

***Metodlar tasnifi.***

Nemis olimi Marien Krisebaxning «Methoden der Literaturwissenschaft» (“Adabiyotshunoslik metodlari”) nomli kitobida quyidagi tasnifni beradi:

1. Positivistische Methode (Pozitivistik metod);
2. Geistesgeschichtliche Methode (Ijtimoiy-tarixiy metod);
3. Phanomenologische Methode (Fenemologik metod);
4. Existentielle Methode (Ekzistensional metod);
5. Morphologische Methode (Morfologik metod);
6. Soziologische Methode (Sotsiologik metod);
7. Statistische Methode (Statistik metod);
8. Strukturalistische Methode (Sturktural metod)<sup>6</sup>.

Rus adabiyotshunoslida badiiy asarga yondashuv usullarini Yu.Borev quyidagi tarzda tasniflaydi:

1. Sotsiologik yondashuv;
2. Gneseologik yondashuv;
3. Tarixiy-madaniy yondashuv;
4. Qiyosiy-tarixiy yondashuv;
5. Biografik yondashuv;
6. Ijodiy-genetik yondashuv;
7. Ontologik yondashuv.

Yu.Borev shu mavzuga oid kitobida bunday yondashuvlarga xos xususiyatlarni bat afsil yoritib beradi<sup>7</sup>.

Adabiyotshunos olim Abdug‘afur Rasulov filolog-magistrlar uchun yozgan “Badiiy asarga yondashuv asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmasida asosan badiiy asarga “tarixiy-biografik” hamda “tarixiy-funksional” yondashuvni

<sup>6</sup> Maren-Griesebach. Methoden der literaturwissenschaft. Stuttgart. 1992.

<sup>7</sup> Борев Ю. Искусство интерпретации и оценки. -М., 1981. Стр.47-66.

o‘zbek adabiyoti manbalari asosida yoritadi<sup>8</sup>. Shu o‘rinda bugungi o‘zbek adabiyotshunoslida adabiyotshunoslilik metodlari, ularning tarixi, tahlil tamoyillariga qiziqish kuchayganini, bu xususda ayrim maqolalar yozilganini ta’kidlash lozim<sup>9</sup>.

Alohibda ta’kidlash kerakki, adabiyotshunoslilik metodlari o‘zaro qat’iy chegarlash ham, masalani bir metod tadqiq yo‘llarining boshqasida uchramasligi tarzida qo‘yish ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Badiiy asar mohiyatini, ijodkor mahoratini ochishda jarayonida bir necha metodlar baravariga qatnashishi ham yoki tadqiqotda biror metodning ustivor bo‘lishi ham mumkin. Muhimi san’atkor dunyosini, badiiy asarning poetik go‘zalligi va estetik qiymatini ko‘rsatishdir.

Dunyo adabiyotshunoslida bir qator metodlari farqlanadi; ulardan ayrimlari qo‘llanmada imkoniyat doirasida yoritildi.

#### ***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. Dunyo adabiyotshunoslidagi yetakchi metodlar haqida ma’lumot bering.
2. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixidagi asosiy tahlil metodlari qaysilar edi?
3. Adabiyotshunoslilikda kelajakda qaysi usullar ko‘proq samara berishi mumkin?
4. Adabiyotshunoslilik metodologiyasi va adabiyot nazariyasi haqida fikr bildiring.
5. Badiiy asarni turli aspektlarda o‘rganish yo‘llarini ayting.
6. Metodlar tasnif bering.

---

<sup>8</sup> Расулов А. Бадиий асарга ёндашув асослари. -Т., 2003, 43-бет.

<sup>9</sup> А.Расулов. Танқид, талқин, баҳолаш. –Т.: Фан, 2006.; С.Мели. “Янги танқид” // “Шарқ юлдузи” журнали. 2010., №4; У.Жўрақулов. Ҳудудсиз жилва. –Т.: “Фан”, 2006.; Эшонбобоев А. Қиёсий-тариҳий метод ҳақида // “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. 2008 йил. № 2.

***FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:***

1. Барт Р. Избранние работы. Семиотика. Поетика. - М.: “Прогресс” 1989.
2. Karimov B. “Adabiyotshunoslik metodologiyasi”. - Т.: “Muharrir”, 2011.
3. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. –Т. “Akademnashr”, 2014.
4. Normatov U. Ijod sehri. –Т.: “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti”, 2007.
5. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Т.: «Sharq», 2004.
6. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. «Fan», 2006.

***3-MAVZU:******BADIY ASARNING FORMAL QIRRALARINI  
O‘RGANADIGAN METODLAR******REJA:***

1. *Badiiy asarning shakliy qirralarini o‘rganadigan metodlarga xos tamoyillar*
2. *Adabiyotshunoslikdagi badiiy asar shakliga qaratilgan metodlar shakliykompozitsion unsurlar*
3. *Formalizm va vulgar sotsiologizm qiyosi konsepsiyalá*
4. *Struktural-analiz metodining asoslari va namoyandalari; struktural-analiz metodining imkoniyatlari*
5. *Metodlar tasnifi*

***Tayanch tushunchalar:*** formalizm, formal maktab, formal metod, immanent analiz, mikroanaliz, matn talqini, semiotik tahlil.

***Mashg‘ulotdan maqsad:*** Yozuvchi, badiiy asar va kitobxon munosabati xususida; Badiiy ijod namunalarini germenevtik talqin etish tajribasi; Germenevtik

metodga doir ilmiy-nazariy tushunchalar muhokamasi; Badiiy asarni qabul qilish masalasi: resepsion estetika va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Adabiyotshunoslik ilmida ba’zan “formalism”, “formal mакtab”, “formal metod” kabi atamalar ishlataladi. Bu tushunchalarning o‘ziga xos tarixi, adabiy-nazariy tamoyillari, asoschivakillari, davomchi-namoyandalari mavjud. 20-yillar rus adabiyotshunoslida “formal mакtab” nomini olgan yo‘nalish va shu mакtab olimlari yozgan tadqiqotlar formal metodning bir namunasidir.

Adabiyotshunoslikdagi formal metod badiiy, shakliy-kompozision unsurlarga eng muhim nazariy-estetik kategoriya sifatida qaraydi. Badiiy adabiyotning individual xususiyati shaklda o‘z ifodasini topadi, degan fikrni ilgari suradi.

Formal metod vakillari tomonidan 20-yillarda struktural poetika, informasiya nazariyasi, belgilar nazariyasi kabi masalalar muhim hisoblangan bo‘lsa, 20yillarning ikkinchi yarmidan e’tiboran badiiy adabiyotga adabiyot olamidagi tizim sifatida qarash, bora-bora shakl va mazmun birligini ifodalaydigan universal ilmiy metod holatiga keladi.

G‘arbiy Yevropada adabiyoti va san’atda formalizm unsirlari, xususan, nemis va fransuz shoirlari ijodida ko‘zga tashlanadi. Ular uchta nuqtaga – konstruksiya tamoyillariga, shaklga hamda “san’at tarixi ismsiz bo‘lsin” shioriga alohida e’tibor beradi. San’at tarixi ismsiz bo‘lsin” shiorini nemis olimi G.Velflin o‘rtaga tashlaydi (“Kunstgeschichte ohne namen” - “История искусства без имен”)<sup>10</sup>. “Kunstgeschichte ohne Namen” tamoyili keyinchalik fransuz strukturalisti R.Bart asarlarida “muallif o‘limi” (“смерть автора”) tarzida namoyon bo‘ldi.

---

<sup>10</sup> Медведев П. В лабаратории писателя. –М., 1971.

Forma məktəb vəkili matematik anıqlıkları yaxşı ko'rganlar. Məsələn badiiy obrazı ham müayyan qoliplarga solış ularda xos bir xüsusiyyət, ammo badiiy obraz ko'p qırralı, ko'po'lchamli, ko'p ma'noli hodisa. Üni aniq rəqamlar yoki formula bilan ifodalash qiyin (A.S.Bushmin). Badiiy asarnı o'rganishda matematik anıqlıklärə yaqınlaşdırıb borışda ba'zan adabiy haqiqatlarından, xayol kengliklərdən uzoqlashish xəvfini təqdirədi. Bu həl fizikadagi vəqt və iş qonunu proporsiyasını eslatadı.

O'z vəqtida və keyinchalıq ham formal məktəb və formal metod tanqidə ham uchrədi. Ayrım adabiyotshunosluk lug'atlarında: "Formal məktəb badiiy ijdöni o'rganishda, asosan realizm və marksistik prinsiplariga qarşı edi" dəğən tanqidlər yoki "Formal məktəb vəkili ko'proq badiiy til, turlı so'z o'yinlari, epitetlər, ko'chim, sintaktik şakllarnı tadqiq etişək katta əhəmiyyət berdilər. Badiiy asar kompozisiyasında esa, ular nutq parchalarının joylashishi, parallel hodisalar, sintaktik parallelizmlər hamda takrorlarnı nazaṛda tutadilar"<sup>11</sup> tarzıda nisbatan xolis fikrlər ham aytildi. Bulardan formal metodning əhəmiyyətini, badiiy asarning şakliy jihatlarını tadqiq etişək müayyan darajada müvaffaqiyat qozonganını anglash qiyin emas.

Zotan, rus formal məktəbi namoyandaları, formal metod tərafdarları, eng avvalo, badiiy adabiyotni siyaset qo'g'irchog'iga aylantırışğa, uni jo'nlashtırışğa, sinfiylik, partiyaviylik singarı qoliplarga solışga qarşı turdilar. XX asr rus adabiyotshunoslığının o'ziga xos məktəb yaratgan ulkan olimları aynan formal metod muammoları olamidan o'sib chiqdilar. Shuningdek, rus adabiyotshunoslığının formal metod XX asrning 50-60-yillarda G'arbiy Yevropa adabiyotshunoslığında sosiologik metoddan qoniqmaslik tufaylı maydonga kelgən "yangi tanqid", strukturalizm oqimlariga müayyan darajada ta'sirini o'tkazdi.

<sup>11</sup> Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изохли луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1983. 345-346-бетлар.

Formal metod o‘z vaqtida tanqid ham qilindi. Struktural-analiz metodining asoslari va namoyandalari hozirgi davrda yetakchi o‘ringa chiqgani seziladi.

Adabiyotshunoslikdagi mazkur yo‘nalish qaysi zamonda, qay tarzda tanqid etilmasin baribir bu maktab vakillari badiiy adabiyotning asl mohiyatiga, poetikaga, uslubga, tilga, so‘zga asosiy diqqatni qaratib, badiiy shaklning mikroanaliziga kirishgan edilar.

Aslida, rus formalist shoirlarning “so‘z ijodkorligi”, o‘z asarlarida shaklga jiddiy e’tibor berishlari bu tipdagi ijod namunalariga formal jihatdan yondashuv zaruratini yuzaga keltirgan edi. Masalan, o‘sha davrning mashhur shoiri Velimir Xlebnikov (1885-1922) “смех” so‘zi o‘zagidan turli so‘z shakllarini yasab, o‘ziga xos she’r yozadi:

“О, рассмейтесь, смехачи!

О, засмейтесь, смехачи!

Что смеются смехами, что смеянутся смеяльно, О,

засмейтесь усмейально!..

О, рассмеших надсмеляльных – смех усмейных смехачей!”

(Велимир Хлебников)

Tabiiyki, formali maktabi olimlari ritm, alleteratsiya, ohangdorligi va badiiy tilning boshqa ta’sirchanligiga doir bunday tajribalarga befarq qaragan emaslar. Badiiy til, uning tovush tarkibi, grammatik qurilishi, o‘zaklar aloqasi – bularning bari V.Xlebnikov uchun til “siri”ni ochishda o‘ziga xos “kalit”ga aylangan (I.Vinogradov). Formal metod namoyandalari har doim badiiy matnga nisbatan “bu mant qay tarzda qurilgan” degan savol bilan yondashganlar. Ehtimol, formal metod tarafдорлари buni yagona va eng to‘g‘ri metod tarzida baholab, sub’yektivizmga yo‘l qo‘ygan bo‘lishlari mumkin.

Ammo ular badiiy adabiyotni shakliy-struktural jihatdan talqin etishda muayyan xizmat etganlari tarixiy fakt. Buni hech kim inkor qilmaydi.

Sharq mumtoz adabiyotda ham badiiy asarning shakliy qirralariga e'tibor berish, shaklga asoslanib asarlar yozish an'anasi mavjud, albatta. Xitoy iyeorogliflari shakliga ko'ra poetik obrazni ifoda qiladi. "Iyeorogliflar belgi emas, balki narsaning ongdagi izidir" (A.Genis). Bitta belgi – aniq bir obraz. Shuningdek, arab yozuviga asoslangan eski o'zbek imlosida harflardan obrazlar paydo qilish, "harf o'yin"lari asosida go'zal she'riy misralar yozish holatlari ko'p uchraydi. Shunday mumtoz badiiyat imkoniyatlarini nazarda tutgan Abdulla Oripov "Bu kun" radifli g'azalida afsus bilan yozadi:

"Nun labing uzra sokin qoldi hiloldek holatim,

Harf o'yin aylay desam, o'zga erur imlo bu kun"<sup>12</sup>

Zotan, mumtoz poetikadagi lafziy san'atlardan ayrimlari bevosita shakl asosiga quriladi. So'z tarkibidagi birgina harf tushib qolsa, ma'no mutlaqo o'zgarib ketadi; bitta nuqtada xato qilinsa, "ko'z" "ko'r" bo'lishi mumkin.

"Qalam o'lsun ali ul kotibi bad tahriring- Ki,  
fasodi raqam **so'zimizni sho'r** aylar.

Goh bir harf suqutila qilur **nodirni nor**,

Goh bir nuqta qusurila **ko'zi ko'r** aylar" (Fuzuliy).

Mumtoz adabiyotdagi "alif"ni tik qomatga, "dol"ni egilgan qomatga, "mim"ni og'izga "sin"ni tishga o'xshatilishida shakliy unsur ustuvorlik qiladi.

"Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonining quyidagi baytida chiroyli musahhof (harfiy xato qilish san'ati–B.K.) qo'llagan:

---

<sup>12</sup> Орипов А. Йиллар армони. –Т.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. 199-бет.

Albatta sharq adabiyotidagi bunday shakliy unsurlarga, muvashshax, tarix, muammo janrlariga formal metodning ilmiy-nazariy tamoyillari bilan yondashilsa, yaxshi natijalar berishi, shu tipdagi asarlarning mazmun-mohiyati anglanishi oson kechishi mumkin.

XX asrning 20-yillaridagi Abdurauf Fitrat, Vadud Mahmud maqolalarida formal maktab namoyandalari nazariy qarashlaridan ta'sirlanish omillari seziladi.

O'zbek adabiyotshunoslari XX asrda mazmun va shaklga birday e'tibor berib, badiiy asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini tushuntirdilar. Bunda adabiyotshunoslardan mavjud metodlar imkon doirasida qo'llandi. 30-yillarda o'zbek adabiyotida ko'zga tashlangan yuzaki shaklbozlik hodisasiga, futuristik tajribalarga tanqidiy munosabat ham bildirildi (Abdulla Qodiriy, Oybek, R.Majidiy).

XX asr "o'zbek modernist" shoirlarning izlanishlari rus formalistlarining tajribalarini esga soladi. Xat boshi yoki tinish belgilariga e'tibor bermaslik, qofiya va vaznda erkin bo'lish, turli geometrik belgilarni so'zlar bilan yonma-yon qo'yish – bularning barchasi keng ma'noda shakldagi o'zgarishlardir. Bu kabi tajribalarga semiotik usulda, formal yoki struktural analiz metodlari asosida yondashuv o'z samaralarini beradi. Shoirlar o'zbek milliy poetik tafakkuri tabiatidan kelib chiqib orginallikka intilayotgan ekan, adabiyotshunos olimlar ham dunyo olimlarining adabiy-nazariy qarashlardan boxabar bo'lgan holda o'sha yangi hodisalarni munosib o'zbekona ilmiy istilohlar bilan atashlari, ular talqiniga mos metodlar kashf etishlari lozim bo'ladi. Aks holda ergashuvchanlik, taqlid, ko'chirmasuyarlik, iqtibosparastlik o'zbek adabiyotshunoslarning jahonga chiqish orzulariga xalaqit berishi mumkin.

XX asr o'zbek adabiyotshunoslarning katta bir avlodni o'z ilmiy-ijodiy faoliyatida boshqa usullar qatorida madaniy-tarixiy maktab namoyandalari

asarlaridan, sosiologik metodning badiiy asarga yondashuv tamoyillaridan unumli foydalandi.

Sotsiologik metodda ijtimoiylik, biografik metodda avtor shaxsiyati ustunlik qilsa, struktural metodda asosiy e'tibor asarning nisbatan mustaqilligi va ichki analizga qaratiladi. Shu bois adabiyotshunoslida “immanent analiz”, “mikroanaliz”, “matn talqini”, “semiotik tahlil” singari tushunchalar bevosita badiiy asarning ichki imkoniyatlarini namoyon qilish jarayonida qo'llanadi. Dunyo adabiyotshunosigining tarkibiy qismiga aylangan struktural metoddan yangi davr o'zbek adabiyotshunoslari munosib asarlar tahlili uchun o'rinli foydalansa, o'z qarashlari bilan uni boyitsa, albatta, bugungi milliy adabiynazariy tafakkur miqyosi, metodik va metodologik imkoniyatlari kengayadi.

#### ***FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:***

1. Барт Р. Избранние работы. Семиотика. Поэтика. - М.: “Прогресс” 1989.
2. Karimov B. “Adabiyotshunoslik metodologiyasi”. - Т.: “Muharrir”, 2011.
3. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur. –Т. “Akademnashr”, 2014.
4. Normatov U. Ijod sehri. –Т.: “Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti”, 2007.
5. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Т.: «Sharq», 2004.
6. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. «Fan», 2006.

#### 4-MAVZU:

### **ADABIYOTSHUNOSLIK METODLARI ORASIDA BADIY ASARNING SHAKLINI O'RGANISHGA QARATILGAN MAXSUS METODLAR**

#### REJA:

- 1. Metodning asosiy tamoyillari*
- 2. Biografik va psixologik metodlar tarixi va asoschilari*
- 3. Biografik janr va biorgafik metod xususida*
- 4. O'zbek adabiyotshunoslida muallifni o'rganishg masalasi*

**Tayanch so'z va iboralar:** psixologiya, biografiya, tarjimai hol, ijodkor "men"i, psixobiografiya, adabiy portret, biografik janr.

#### ***Metodning asosiy tamoyillari.***

Adabiyotshunoslikda turli yo'nalishdagi metodlar mavjud. Badiy asarni tahlili va talqini uchun adabiyotshunos turli usullarni bilishi lozim. Badiy asar muallifini tadqiq etadigan metodlardan boxabarlik tahlilga yordam beradi. Har bir metodning nazariy asoslari, asoschilari, talqindagi individual qirralari o'rganish dolzarb sanaladi.

Adabiyotshunoslidagi biografik metod tamoyillarining ishlab chiqilishi va, umuman, bu metodning badiy asarlarni o'rganishga tatbiq etilishi fransuz tanqidchisi va shoiri Sharl Ogyusten Sent-Byov (1804-1869) nomi bilan bog'lanadi. Jurnallarda bosilgan maqolalaridan uning "Dushanba kunlaridagi suhbatlar" (1851-1862), "Yangi dushanba kunlari" (1863-1870) nomli bir qancha kitoblari yuzaga keladi. Sent-Byov 24 yoshida "fransuz poeziyasi va teatrining tarixiy va tanqidiy obzori" tadqiqotini yozadi. Olimning yana bir muhim asari "Imperiya davrida Shatobrian va uning adabiy guruhi" (1861) deb nomланади.

"Adabiy portretlar" (1836-1839) nomli («Литературные портреты». Критические очерки. М. 1970) kitobi biografik metod tamoyillari asosida

yozilgan. Bu kitobida Sent-Byov o‘rta asrlar fransuz adabiyotini, 16 asr poeziyasini, klassiklardan Kornel, Rasin, Moler, Lafonten ijodini, 18 asr yozuvchilari - Volter, Didro, Bomarshe, Russo ijodini, 19 asrdan Shatobrian, Gyugo, Myusse, Jorj Sand va Flober ijodini tadqiq etadi. Adiblarning biografiyasi bilan ijodini bir butunlikda talqin qiladi.

Sent-Byov o‘zining biografik yo‘nalishda yozgan adabiy-tanqidiy maqolalarida har bir yozuvchi hayoti va aniq bir asariga talqiniga alohida e’tibor beradi. Zotan, “Adabiy portretlar” to‘plamida: “Meni har doim xatlar, suhbatlar, fikrlar, xarakterlarning o‘ziga xos turli fazilatlari, ma’naviy-ruhiy qiyofasi; bir so‘z bilan aytganda - mashhur yozuvchilarning biografiyasini o‘rganish o‘ziga jalb etib keldi”,<sup>13</sup> degan fikrlarni yozadi.

Bu metodga yaqin o‘tmishda jiddiy e’tibor berilmadi. Aynan “psixobiografiya”, ya’ni yozuvchining psixologik biografiyasi tarzida adabiyotshunoslik amaliyatiga tatbiq etilmadi. To‘g‘risi, bir haqiqatni, ya’ni badiiy asarda ijodkor ruhiy kechinmalari, ko‘rgan-kechirganlari, hayotiy tajribalari yoki turli iztirobli hodisalar aks etishini, bunday biografik voqelikning izi asarlarda qolishini hech kim inkor qilmaydi. Yozuvchi psixobiografiyasi qaysidir ma’noda uning badiiy asarlaridagi voqe-hodisalar bayoni, yaratgan obrazlari tizimida o‘z ifodasini topadi. Bunday individuallik san’at asarining originalligini, o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi. Yozuvchi hayotidagi o‘zgarishlar, besaranjomlik, bezovtalik, ruhiy-hissiy kechinmalar, to‘lqinlanish va og‘riqli dardlar, muallaq yoki sobit dunyoqarash fonida uning badiiy asarini talqin etish o‘zining ijobiy samaralarini berishi tabiiy.

Masalan, L.N.Tolstoy hayot yo‘lida, oilaviy muhitida uchragan turli hodisalarni tugal anglamasdan adibning tavba-tazarrusini ham, eng kichik hikoyalaridagi oddiy dehqonlar obrazidan tortib, ulkan epopeyalaridagi kibor shaxslar tabiatini ham to‘la anglab bo‘lmaydi. Adibning ijodkor sifatidagi taqdiri

<sup>13</sup> Сент-Бёв III. Литературные портреты. Критические очерки. -М., 1970. Стр.313.

bilan rus podshosining o‘zi qiziqqan; xotini Sofiya Andreevna bilan bo‘lib o‘tgan turli munozaralari, hatto aniq bir asarining syujetiga asos bo‘lgan; ko‘pgina asarlari uchun yon-atrofidagi yaqinlari prototip vazifasini bajargan<sup>14</sup>.

Boshqa bir misol: “Hind sayyohi”, “Munozara”, “Rahbari najot” kabi asarlari haqida Fitratning ruhiy-ma’naviy dunyosini, e’tiqodiy qarashlarini, unga ta’sir etgan mikromuhitni tadqiq etmaguncha to‘g‘ri xulosalar chiqarish qiyin. Ayni chog‘da, oradan o‘n-yigirma yillar o‘tgandan keyin yozilgan “Me’roj”, “Zayd va Zaynab”, “Zahroning iymoni” tipidagi hikoyalarni ham Fitratning hayot tajribalari, dunyoqarashidagi o‘zgarishlar, muhit tayziqi kabi qator biografik omillarning maxsus tekshiruvini talab etadi. Tabiiyki, bu jarayonda xotira kitoblari, kundaliklar, o‘z vaqtida matbuotida bosilgan turli maqollar muhim ahamiyat kasb etadi.

Sh.Sent-Byovdan keyin mashhur kishilarning badiiy-estetik biografiyasini yozish an’anasini fransuz yozuvchisi Andre Morua (1885-1967) davom ettirdi. U biografik metodga mos ravishda romanlashtirilgan biografiyalarni maromiga etkazib yozdi<sup>15</sup>. A.Morua ingliz adabilaridan Bayron va Shelli, Dikkens va Brouning, Uelles va B.Shouning ijodini jiddiy tahlil qiladi. Uning nazarida, O.Balzak fransuz adabiyotida eng yuksak maqomda turadi. A.Morua fransuz adabiyoti tarixi hamda XX asr fransuz yozuvchilari haqida “Labryuyerdan Prustgacha” (1964), “Prustdan Kamyugacha” (1963), “Jiddan Sartrgacha” (1965), “Aragondan Monterlengacha” (1967) nomli kitoblar yozadi. Bu kitoblardan tanlab olingan adabiy maqolalar 1970 yili rus tilida “Adabiy portretlar” nomi bilan nashr etiladi.

<sup>14</sup> Bu haqda batafsil qarang: V.Veressaev. Jivaya jizn. -M., 1991.

Narkirer F. Andre Morua. -M., 1974. Str. 22.

<sup>15</sup> Morya A. Прометей или жизнь Бальзака. -М., 1988. Стр. 460.

### *Biografik va psixologik metodlar tarixi va asoschilari.*

Olimlar ta'kidlashicha, A.Morua gazeta va jurnallardagi maqollaridan tashqari turli janrlarda etmishdan ortiq asari alohida kitob holida nashr qilingan. Adibning “Uch Dyuma”, “Olimpio yoki Viktor Gyugo hayoti” asarlari mashaqqatli mehnat, jiddiy izlanishlar tufayli maydonga keldi. Morua ijodi bilan tanishgan o‘quvchi yuzlab shaxslar bilan uchrashadi. I.Turgenev va M.Prust haqida yozgan asarlari, ularning ijodiga oid mulohazalari adabiy-tanqidiy tadqiqot tipiga yaqin turadi. Bu adib ijod qilgan davr Yevropa falsafasi va adabiyotida psixologiyaga, insonning ichki kechinmalari tadqiqiga, psixoanalizga, ekzistensializmga qiziqish juda kuchli edi. Bu yo‘nalishning ulkan namoyandalari jarayonga o‘z ta’sirini o‘tkazayotgan bir davr edi. A.Morua “vaqt ni so‘ragan odamga soatining ichki mexanizmlarini, prujina” yoki mayda murvatlarini emas, soatning o‘zini ko‘rsatib qo‘ya qoldi. Adabiy-tarixiy jarayonda turli yo‘nalishlar bilan parallel yashashga haqli. Morua uchun insonning o‘zi, uning hayot tarizi va ijodi muhim edi. “Eng asosiysi, - deya yozadi F.Narkirer “Andre Morua” kitobida, - Moruaning barcha yozgan asarlarini bir narsa - uning metodi, ijodga biografik yondashuv metodi birlashtirib turadi”<sup>16</sup>. A.Moruaning ko‘pgina qarashlari Sent-Byovning adabiy konsepsiyasigaa yaqin turadi. “Sent-Byov himoyasiga doir” degan maqolasida o‘sha olimning: “Men daraxt qanday bo‘lsa, mevasi ham shunaqa, deya mammuniyat bilan aytaman. Shunga monand, adabiy tadqiqot meni psixologik izlanish-tadqiqotlar sari etaklaydi”, degan fikrlarini keltiradi.

Adabiyotshunoslikdagi biografik metod uchun psixologik yondashuv, biografiya va psixologiya paralelligi ahamiyatini shu e’tirofdan ham bilish mumkin. Zotan, bu metod haqida marksist tanqidchi olimlar biografik metodda badiiy asarning jamiyatdagi funksiyasiga e’tibor qaratilmaydi, badiiy asar muayyan shaxs ijodining mahsulidan iborat qilib qo‘yiladi, bu metodda sub’ektivlik gunohi

---

<sup>16</sup> Наркирер Ф. Андре Моруа. -М., 1974. Стр.199-200.

bor, qolaversa, bu metod sermahsul emas, tarzida ayblar taqaganlar. Bu metoddan foydalanadigan adabiyotshunoslardan ham qolip tavsiya etilgan: tadqiqotchi adibning adabiy va o‘z davri ijtimoiy hayotidagi rolini to‘g‘ri aniqlay bilishi lozim.

Tadqiqot metodiga bunday munosabat, tabiiyki, adabiyotshunoslik ilmi ustidan yuritilgan siyosatga, fikr va qalam erksizligiga borib taqaladi. Ma’lum bo‘layotganidek, bu metodning ijobiy jihatlari ko‘p. Oddiy bir o‘xshatish qilib aytganda, quyosh nuri yomg‘ir suvidan o‘tib kamalakka aylanganidek, badiiy asar ijodkor shaxsiy hayoti prizmasidan o‘tkaziladi va natijada ijodninig kamalakranglari kashf etiladi.

Adabiyotshunoslikdagi biror metodni haqiqatni anglashning yagona yo‘li sifatida hech kim mutloqlashtirmasligi lozim. Chunki ilmda haqiqatga boriladigan yo‘l bitta emas. Har bir tadqiqot usulining o‘ziga xos ichki yo‘l-yo‘riqlari mavjud. Har bir tadqiqotchi badiiy asarni qismlarga ajratish va butunlashtirish yoki aniq bir nazariy muammoni maxsus ajratib o‘rganish va o‘z ilmiy-nazariy fikrlarini bayon etish huquqiga ega. Ayni choqda, tadqiqotchi olim o‘z ishida kompleks analiz usulini qo‘llashi ham mumkin.

### ***Biografik janr va biorgafik metod xususida.***

Andre Morua Onore de Balzak ijodini yoritar ekan, uning “Gorio ota” (1843 yil yozilgan) romaniga alohida to‘xtaladi. Qahramonlarning xatti-harakatlariga, psixologik holatlariga, dardu alamlari va kayf-safolariga roman muallifi hayoti yo‘li orqali qaraydi. A.Morua romandagi Voke xonim ijraxonasida yashaydigan “o‘sib kelayotgan personaj” Rastinyak hamda “isyonkor, jamiyatga qarshi urush e’lon qilgan” Votrendan Balzak tabiatiga xos xususiyatlarni topadi. Shu ma’noda yozadi: “Balzak o‘z sifatlaridan ancha-munchasini Votrenga bergen o‘sha davrdagi hamma yosh yigitlar kabi yozuvchi hali ham Napoleon siymosi oldida toblanishdan xalos bo‘lgan emas”.

Balzakning Napoleon siy whole oshuftaligini yana bir fakt ham isbotlaydi. Uning yozuv stoli-kitob javonining eng tepasida yarim metrcha keladigan Napoleonning gips figurasi qo‘yilgan. Uning pastiga karton qog‘ozda: “U qilich bilan boshlagan ishni qalam bilan oxiriga etkazish kerak! Onore de Balzak”, degan yozuv yopishtirib qo‘yilgan. “Napoleon Balzak uchun titanizm - kuchqudrat namunasi bo‘lgan, Adib uni “insoniyat sultanati tarixadagi eng kuchli iroda” egasi deb bilgan. Hayotni abadiy janggoh sanagan Balzak o‘zini ko‘p bora Napaleonga o‘xshatadi”<sup>17</sup>.

Balzak “Gorio ota” romanida ba’zan Votren, ba’zida Rastinyakka o‘z xarakteri qirralari qo‘shib yozadi. Ayrim sahifalarda Balzak Votrendek isyonkor holatga kirgandek ko‘rinadi. “Holbuki, o‘zining tabiatiga ko‘ra u ham Rastinyakka o‘xshagan yumshoq odam. Ezgulik, mehribonlik nima ekanini yaxshi biladigan Jorj Sand qat’iyat bilan shunday derdi: “Bu daho inson to‘g‘risida u dastavval mehribon va mushfiq odam bo‘lgan demoq - uning to‘g‘risida men biladigan maqtovlardan eng yuksagini aytmoqdir”. Biroq xuddi Rastinyak kabi, deyarlik boshqa hamma odamlar kabi Balzak ham murakkab odam edi. Xuddi Rastinyak kabi do‘stlikning qadriga etardi... Biroq Balzak muxtojliklarga to‘lib-toshgan, kishini yo‘ldan ozdiruvchi ermaklari serob bir tarzdagi hayotni kechirdi, bu hayotda u tez-tez g‘azab otashlariga ham duch kelib turardi. Tabiiyki, Balzak ham xuddi Rastinyakka o‘xhab nima qilib bo‘lsa-da, bunaqa turmushdan xalos bo‘lishni istagan.

Rastinyak “Gorio ota” romanida hali juda tortinchoq xijolat chekaveradigan yigit sifatida ko‘rinadi. Biz Rastinyak bilan yana qaytadan uchrashganimizda, u endi baron, davlat kotibi, o‘z o‘ynashini erining ozmiko‘pmi ongli sherigi (“Bankir Nusingenlar xonadoni”), 1845 yilga kelganda esa u endi ministr bo‘ladi... Endilikda u “Mutloq ezgulik degan narsa yo‘q, faqat sharoit bor” deb da’vo qiladi (“O‘zlari bexabar mazxarabozlar”, “Asridan saylangan noib”). Ko‘pincha bu

<sup>17</sup> G.E.Ionkis. Onore Balzak. -M., 1988.

personaj uchun Ter nusxa bo‘lib xizmat qilgan deyishadi. Darhaqiqat, Balzak Rastinyak obrazini yaratar ekan, Terning ba’zi bir sifatlarini olgan bo‘lishi mumkin, lekin hamidan ortiqroq u o‘zining sifatlarini olgan”<sup>18</sup>.

Ma’lum bo‘lganidek, A.Morua adib asarlaridagi obrazlar tabiatining eng muhim va asosiy jihatlarini Balzakning o‘ziga bog‘lab tushuntiradi. Balzakka xos barcha fazilat va orzu-istiklar uning qahramonlariga ham xos. Har qanday ijodkor asarlarida, eng avvalo o‘z qalbini, o‘z ma’naviy dunyosini aks ettiradi. Shu ma’noda badiiy asar holatdan muallif dunyoqarashini, e’tiqodi va turmush tarzini anglash ham mumkin. Biografik metod shu anglash va anglatish yo‘lidan borib ish ko‘radi.

Inchunun, jahon adabiyotshunosligi, xususan, fransuz adabiyotshunosligida biografik metodning ham nazariy, ham amaliy tajribalarini, ta’kidlash joizki, muvaffaqiyatli tajribalarini uchratish mumkin.

Dunyo adabiyotida ma’lum bir ijodkorning kotiblari tomonidan yozilgan asarlar ham (Iogann Peter Ekkerman “Gyote bilan suhbatlar”), adiblarning o‘z e’tiroflari bitilgan asarlar ham (L.Tolstoy “Iqrornoma”) mavjud. Bunday manbalar – maktublar, iqrornomalar, suhbatlar, xotiralar, estaliklar, qo‘lyozmalarining turli nusxalari, ijodkor labaratoriyasi, shaxsiy arxivi, zamondoshlari xotiralari va, umuman, ijodkorga tegishli boshqa qator omilar badiiy asarni biografik metod asosida o‘rganish uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi.

V.S.Baraxov “Adabiy portret yaratish san’ati” kitobida muhim bir xotirani keltiradi. 1901 yili, bir kuni Chexov Gorkiyga aytadi: “Mana Gyotening har bir so‘zi yozib olingan, ammo Tolstoyning fikrlariy havoga uchib ketmoqda”. Chexov bir necha bor Tolstoy yonida Ekkerman yo‘qligidan afsuslanadi. Hatto bir kuni Sulerjiskiy degan ijodkorga Tolstoyga kotiblik qilishni maslahat ham beradi. I.P.Ekkermanga o‘xshab, aynan ijodkor bilan yonma-yon yashab uning kundalik

<sup>18</sup> Andre Morua. Onore de Balzak // «Jahon adabiyoti» jurnali, 1999. №8, 123-135 betlar.

“hikmat”larini yozib borish, tabiiyki, bunday kundalikdagi xotiralar biografik metodini qo’llashda qo‘l keladi. Vaqt o‘tgandan keyin yozilgan xotiralarga esa, turli manfaatlar, ba’zida to‘qima gaplar aralashib qoladi.

Keyingi yillarda o‘zbek olimlari ham quruq, xronologik adabiy portretdan farqli o‘laroq biografik metod imkoniyatlaridan foydalanish zarurligini his etmoqda. Shu ma’noda professor A.Rasulovning “Ilmi g‘aribani qo‘msab...” (T., “Ma’naviyat”, 1998) kitobidan o‘rin olgan “Hol tarjimasidagi saktalik va soxtaliklar” nomli maqolasi ahamiyatlidir. Olim bunda yozuvchi biografiyasi bilan uning asari orasidagi uzviy bog‘lanish, ruhiy yaqinlik ahamiyatiga alohida e’tibor beradi: “Yozuvchi holati bilan ijodi orasida uzviy bog‘liqlik bor... Har qanday asarda yozuvchi ruhi, holi, qalbi aks etadi. Asarlar sinchiklab o‘rganilsa, ular yozuvchi holati, ruhiyati haqida ko‘p narsalar so‘zlab beradi”<sup>19</sup>. Olim “Tanqid, talqin, baholash” (T. Fan. 2006.) kitobida yozadi: “Badiiy asar – xoh u lirik, xoh nasr, xoh drama bo‘lsin – yozuvchining ijodi mahsuli. Farzand otaonaga o‘xshamasligi mumkin emas. Badiiy asar talqin, tahlil qilinganda, tabiiyki, yozuvchining ruhiy holati, kayfiyati hisobga olinadi. Adabiyotshunoslikda badiiy asarni talqin etishda yozuvchi ruhiyati, kayfiyati – holatini o‘rganuvchi soha bor. Uni biografik metod yoxud badiiy asarga yozuvchi holati nuqtai nazaridan yondashish deyiladi”<sup>20</sup>.

O‘zbek adabiyoti tarixidagi Abdulla Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”, Oybekning “Bolalik”, G‘afur G‘ulomning “Shum bola”, Said Ahmadning qamoqxonalaridan olib yozilgan hikoyalari va boshqa ko‘plab asarlarni aynan shu metod asosida tadqiq qilish o‘zining yaxshi samaralarini berishi tabiiydir. Bu toifaga mansub tadqiqotlar qisman bo‘lsa ham o‘zbek adabiyotshunosligi tarixida mavjud. O‘zbek adabiyotshunoslida biografik metodda yozilgan tadqiqotlar sirasiga I.Sultonning “Navoyning qalb daftari”, N.Karimovning “Cho‘lpon”,

<sup>19</sup> Rasulov A. Ilmi g‘aribani qo‘msab. -T.: Ma’naviyat, 1998. 27-bet.

<sup>20</sup> Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. -T.: Fan, 2006. 75-bet.

D.Quronovning “Cho‘lpon: xayoti va ijodi” kabi kitoblarni misol qilib keltirish mumkin.

Biografik metod uchun ijod ahli asosan o‘zini yozadi, badiiy obrazlari mohiyatiga o‘z qarashlarini, estetik idealarini joylashtiradi, degan tamoyil ham muhim sanaladi. “Yozuvchining, garchi shaxsan tanilmasa ham, asarlarini o‘qib, qanday tabiatli shaxs ekanini g‘oyibona bilish, tasavvur qilish mumkin. Chunki u asarlarida asosan o‘z tabiatini, ruhini tasvirlaydi” (Abdulla Qodiri). Ulkan ijodkorlarning ruhi, tabiati, ideallari o‘z qahramonlari ortiga yashiringan bo‘ladi. Badiiy asar ijodkor shaxsida butunlashadi. I.V.Gyote aytadiki: “Mening hamma asarlarim bitta iqrornomaning bo‘laklaridir”, deb yozadi. “Mangu yashaydigan bir umumiy qoida bor - muallifning shaxsiy iqrorlari va e’tiroflaridan mutlaqo xoli bo‘lgan san’at asarini topish g‘oyatda mushkul... Shunisi ham borki, yozuvchi o‘zi to‘g‘risida gapirmoq uchun, albatta, iqrornoma yoki kundaliliklar shakliga murojaat qilmog‘i shart emas. U buni o‘zi o‘ylab topgan to‘qima obrazlar tili bilan aytadi. Birinchi qarashda bu obraz adibning o‘ziga sira o‘xshamaydi, bundan nafaqat adabiy kitobxon, ba’zan esa hatto muallif biografiyasining hamma sirlaridan xabardor bo‘lgan tadqiqotchi ham aldanib qoladi...”<sup>21</sup>.

Badiiy asardan yozuvchi tabiatiga xos xususiyatlarni anglash, his etish ijodkor yashagan muhitni, ma’naviy-ruhiy, e’tiqodiy dunyoqarashini anglash orqali yuzaga keladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning shaxsiyatini, dunyoqarashni anglash asarlarini teranroq tushunishga olib keladi. Zotan, alloma adibning Yusufbek hoji, Otabek, Anvar, Kumush, Ra’no singari qahramonlarida aks etgan bebafo ma’naviy qadriyatlar bevosita Abdulla Qodiri ma’naviy-ruhiy dunyosiga taalluqlidir. “...Artist bo‘lganimda edi, Otabek rolida o‘zim o‘ynardim... Negaki, Otabek

---

<sup>21</sup> Jahon adiblari adabiyot haqida. -T.: Ma’naviyat, 2010. 249-bet.

xarakterini mendan yaxshi bilguvchi yo‘q...”<sup>22</sup>, degan istagi asosida ham o‘sha ruhiy butunlik sezimi bor.

### ***O‘zbek adabiyotshunosligida muallifi o‘rganish masalasi.***

Zamondoshlarining xotiralarida Abdulla Qodiriyning gullarni parvarishiga, gullarga shaydo ekani yozilgan. Bu fazilat bilan “Mehrobdan chayon” romanidagi 1937 yilgi mash’um tuzumning qahratonlari adib qalbini muzlatdi; ammo adibni uning bo‘yniga solingan sirtmoqdan, gardaniga yuklangan tuhmatlardan, afsuski, hech kim qutqarib qola bilmadi. Qodiriy shahidlar silkiga tizildi.

Ijod ahli tomonidan to‘qilgan nomlar, yaratilgan obrazlar “men”lik olami ifodasiga xizmat qiladi. Poetik ko‘chim, obrazli tafakkur tarzi shuni taqazo qiladi. Ko‘p hollarda ijodkorlar asarlari mazmun-mohiyatida o‘z dardu dunyosi aks etganini ochiq e’tirof ham qiladi. Shoir Abdulla Oripovdan “Otello”, “Alisher Navoiy”, “Alloma” kabi she’rlarining yuzaga kelish tarixi to‘g‘risida shunday fikrlarni aytadi: “Bu she’rlar, albatta, aniq tarixiy sanalar bilan bog‘liq. Lekin ularning zaminida mening hayotga munosabatim bor. Bu tuyg‘ular kishining yuragida doimo yashab, muayyan bir turtki sababli she’rga o‘tgan, xolos” Anvarning gullarga suv quyib o‘sirishi, parvarishlashga bo‘lgan shaydoligi orasida yaqinlik bor, albatta. Boshqa bir misol. Abdulla Qodiriyning bolalikda qiyinchilik bilan tahsil olgani, so‘ngra Rasulmuhammadboy eshidiga mirzalik qilib, keyin boyning taklifi bilan uning qiziga uylangani qaysidir darajada Anvar hayoti bilan bog‘liq (Anvarning Solih maxdumga yordamchi bo‘lib, so‘ng Ra’noga uylanishi kabi) voqealarni eslatadi. Buni qarangki, roman so‘ngida Abdulla Qodiriy mirzo Anvarni dor tagiga olib boradi va badiiy usuli bilan o‘limdan “qutultirib” yuboradi. 1937 yilgi mash’um tuzumning qahratonlari adib qalbini muzlatdi; ammo adibni uning bo‘yniga solingan sirtmoqdan, gardaniga yuklangan tuhmatlardan, afsuski,

hech kim qutqarib qola bilmadi. Qodiriy shahidlar silkiga tizildi.

---

<sup>22</sup> Qodiriy H. Otam haqida. -T., 1983.113-bet.

Ijod ahli tomonidan to‘qilgan nomlar, yaratilgan obrazlar “men”lik olami ifodasiga xizmat qiladi. Poetik ko‘chim, obrazli tafakkur tarzi shuni taqazo qiladi. Ko‘p hollarda ijodkorlar asarlari mazmun-mohiyatida o‘z dardu dunyosi aks etganini ochiq e’tirof ham qiladi. Shoir Abdulla Oripovdan “Otello”, “Alisher Navoiy”, “Alloma” kabi she’rlarining yuzaga kelish tarixi to‘g‘risida shunday fikrlarni aytadi: “Bu she’rlar, albatta, aniq tarixiy sanalar bilan bog‘liq. Lekin ularning zaminida mening hayotga munosabatim bor. Bu tuyg‘ular kishining yuragida doimo yashab, muayyan bir turtki sababli she’rga o‘tgan, xolos<sup>23</sup>.

Xullas, biografik metod tarixini, namoyandalarini, imkoniyatlarini, dunyo adabiyotshunoslidagi yutuqlari hamda tajribalarini chuqur o‘rganish badiiy asarlarni o‘ziga xos tarzda tushunish va tushuntirish uchun amaliyatda qo‘llash, albatta, o‘zining ijobiy natijalarini beradi.

Biografik, psixologik va psixoanalitik metodlarning talqin imkoniyatlari katta. Ijodkor hayotidagi ma’lum bir voqeа-hodisalar uning yozgan asarlarida qaysidir tarzda o‘z aksini topadi. Psixologik metodning o‘ziga xos xususiyati eng avvalo, psixologiya fani bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu metoddha nafaqat badiiy asar qahramonlari ruhiyati, psixologiyasi, balki muallif ruhiyatini ham qiyosiy o‘rganish joiz bo‘ladi. Psichoanalitik va fenomenologik metodlarning inson ruhiyati bilan bog‘liq.

### **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Biografik va psixologik metodlarning eng asosiy farqli qirralari nima?
2. Psichoanalitik metodning ilmiy-nazariy asoslari to‘g‘risida ma’lumot bering.
3. O‘zbek adabiyotshunoslida muallifni o‘rganish yo‘lida yozilgan asarlar qaysilar?

---

<sup>23</sup> Abdulla Oripov. Ehtiyoj farzandi. -T., 1988. 124-125-betlar.

4. Adabiyotshunoslikda badiiy asar mohiyatini oydinlashtirishga qaysi usullar ko‘proq foyda beradi?

***FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:***

1. Барт Р. Избранние работы. Семиотика. Поэтика. - М.: “Прогресс”, 1989.
2. Karimov B. “Adabiyotshunoslik metodologiyasi”. -Т.: “Muharrir”, 2011.
3. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – Т.: «Fan», 2006.
4. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. - Т.: “Akademnashr”, 2011.
5. Quronov D., Rahmonov B. G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – Т.: “Fan”, 2008.
6. “O‘zbek adabiy tanqidi” Antologiya. -Т., “Turon-Iqbol”. 2011.

#### **iv. AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI**



## 1-AMALIY MASHG'ULOT:

### ADABIYOTSHUNOSLIK ILMIDA METODLAR KLASSIFIKATSİYASI

#### REJA:

- 1. Badiiy asar matnini sosiologik metod asosida tahlil etishning ilmiynazariy tamoyillarini aniqlash**
- 2. Adabiyotshunoslikda vulgar sosiologizm hodisasi tarixini o'r ganib chiqish**
- 3. Qiyosiy va qiyosiy-tarixiy metodga doir manbalar muhokamasi**
- 4. O'zbek adabiyotshunosligida badiiy asarni qiyosiy-tipologik asosda talqin etilgan adabiy-ilmiy manbalar tahlili**
- 5. Adabiyotshunoslikda intertekstuallik: badiiy va ilmiy asarlar talqini**

**Amaliy mashg'ulotdan maqsad:** Badiiy asar kontekstiga yondashuvda matn muhim sanaladi. Jamiyat bilan aloqadorlikda tekshirishda sosiologik metod yetkachilik qiladi. Badiiy asar matnini sosiologik metod asosida tahlil etishning ilmiy-nazariy tamoyillarini aniqlash lozim bo'ladi. Adabiyotshunoslikda vulgar sosiologizm hodisasi tarixini o'r ganib chiqish muhim. Qiyosiy va qiyosiy-tarixiy metodga doir manbalar muhokamasi qilinadi. O'zbek adabiyotshunosligida badiiy asarni qiyosiy-tipologik asosda talqin etilgan adabiy-ilmiy manbalar tahlili etiladi. Adabiyotshunoslikda intertekstuallik: badiiy va ilmiy asarlar talqini xususida fikr yuritiladi. Shu tushunchalar asosida quyidagi hikoyani sosiologik nuqtai nazardan tahlil qiling:

*Nazar Eshonqu*

## **Maymun yetaklagan odam**

Bu voqeal uch yillar oldin bo‘lgan edi. Shu ko‘chadan bir uyni ijaraga olib ko‘chib kelganimda cholning sharti ketib, parti qolgandi, u ko‘chaning muyulishida men egallagan uyga qo‘shti hovlida yashardi. Uni birinchi marta uyining oldidagi eski o‘rindiqda chuqur o‘yga tolgan holda ko‘rgan edim. U qoboqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo‘lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlagan, ko‘rimsiz yuzi badjahl ma’budlarning haykaliga o‘xshab ketar, unga qaragan odamning yuragi noxush bir hisdan orqaga tortar edi. Ko‘zlar hissiz va ifodasiz, egnida elliqinchi yillarning andozasida tikilgan ancha salobatli kitel, baqbaqasi osilib turgan holda o‘ychan o‘tirardi. Mashinadan kitoblarni katta etakda tashib kiritayotganimda - go‘yo atrofidagi olamdan endi hech qanday iltifot kutmay qo‘ygandek, hech narsaning qizig‘i qolmagandek menga e’tiborsiz bir ko‘z tashladida, so‘ng yana o‘sha holatida yerga qarab o‘tiraverdi.

Bir necha kundan so‘ng uy bekasidan bu cholning bir paytlar tuzukkina rassom bo‘lganini va hozir ham surat chizib turishini eshitib, hayron qoldim. Uni hayotda omadi chopmagan biron amaldor bo‘lsa kerak, deb taxmin qilgandim. Keyinchalik cholni tez-tez o‘sha kitelida go‘yo necha qadam umri qolganini o‘lchab yurgandek og‘ir qadamlar bilan uyiga yoki ko‘cha boshidagi oziqovqatlar do‘koniga qarab ketayotganini, gohida esa mahalla oshxonasida ovqatni titrabqaqshab yeb o‘tirganini, qoboqlari ostida odamlarga adovat bilan tikilibtikilib qo‘yganini ko‘rib qolardim. Zaharli ... odamni bo‘g‘ib, holdan qilib qo‘yadigan bu adovat menga o‘shanda uning butun tanasidan, butun vujudidan, qoqshol bo‘lib qolgan barcha qon tomirlaridan hamda chakalakdor ichidagi tilsimli qo‘rg‘on kabi noma’lum bo‘lgan umr qal’asidan ufurayotgandek tuyulgandi. Uni ko‘rsam negadir yuragim g‘ash tortadigan, ko‘nglim behuzur bo‘ladigan, kayfiyatim buziladigan bo‘lib qolgandi, vaholanki, hali u bilan salomalikdan nariga o‘tmagandik. Menga, avvalo, uning turqi yoqmasdi: nochor holiga qaramay

odamlarga kibr aralash dimog‘-firog‘ bilan qarar, hammaga yotsirab, shubha bilan tikilar, go‘yo o‘zini bir umr har bir kishiga shunday tikilib o‘tgandek tutar edi. Bir kuni uy bekasi mendan cholga kechki ovqat chiqarib berishni iltimos qilib qoldi. Cholning sovuq yuzini esladimu isthola qildim; biroq yo‘q deya olmadim. Eski uslubda qurilgan, tor tabaqali eshidan ichkariga kirdim: chol katta ayvonda ... o‘tirgancha oldida ... Cholning uyi hashamatli, keng, lekin toshlar tilgan maydonday huvillab yotardi. Ustun va romlari chirigan, umuman hovlidan chirkin va badbo‘y hid kelardi. Chirkin hid daraxtlardan, qor ostida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uyning yog‘ochlaridan va ayvonda qalashib yotgan har xil rasmlar uyumidan kkelayotgan edi: shaltoq hid esa axlat solinadigan unduqadan kelardi. Xayolimga birdan bu unduqadagi axlatlarni chol umr bo‘yi saqlab kelgan bo‘lsa kerak degan fikr kelib qoldi. Hiddan ko‘nglim ayniguday bo‘lib chol o‘tirgan ayvonga yo‘l oldim. Chol menga e’tibor ham bermadi, ajabsinib bir qarab qo‘ydiyu, o‘z ishini davom ettiraverdi; u qandaydir bo‘yog‘i ko‘p surat chizayotgan edi. Nariroqda turgan kichkina xontaxtani keltirib cholning oldiga qo‘ydim: u shunda ham e’tibor bermadi, u o‘ziga ovqat keltirib berishlariga ko‘nikib qolgan edi, shekilli. Shunda uning qo‘llari qaltirab, bo‘yoqlarni chaplab yuborayotganini sezib qoldim. Cholning oldiga ovqatni ham qo‘yganimdan so‘ng, u chizishdan to‘xtab, xontaxtaga o‘girildi va bo‘yoqli qo‘llari bilan nonni bemalol sindirdi, og‘ziga tutdi; yorilib qolgan lablari orasidan chirigan ko‘m-ko‘k tishlari ko‘rindi. Shunda men yana uning qandadir badjahl ma’budning haykaliga juda o‘xshab ketishini his qildim. U bu yerdaligimni ham unutganday, xurillatiib, imillab, chollarga xos lanjlik bilan ovqatlanar va og‘zining ikki chetidan lag‘monning suyug‘i yana kosaga oqib tushar, boshi qalt-qalt titrar, bo‘yinlarida tirishib qolgan tomirlar u yutinganda bo‘rtib, ko‘karib ketar, ko‘zлari horg‘in yoshlanib turar, har dam-har damda qanjarini o‘ng qo‘li bilan qashirdi. Bu unga odat edi chog‘i - qanshari turli bo‘yoqlarga belanib qolgandi. Qo‘llari qoshiqqi madorsizlik bilan ko‘tararkan, uning shu soniyada yana ham ifodasiz tusga kirgan

yuziga qarab, ovqatni ham eplab icholmaydigan asabiy va ro‘dapo cholning rassom ekanligiga sirayam ishongim kelmasdi.

- Suratlariningizni ko‘rsam bo‘ladimi? Yigirmanchi yillardagi suratlariningizni? Deb so‘radim men unga shubhamni bildirmaslikka tirishib. Chol bamaylixotir kavshandi-da, menga qaramasdan, o‘ziga buning aloqasi yo‘qday, go‘yo bir uyum axlatni ko‘rsatayotganday, ijirg‘anib, qo‘li bilan ayvonning to‘rini ko‘rsatdi. Hammasi tartib bilan terib qo‘yilgan, va u tomondan boshlanadi, dedi hirqiroq tovushda uning tovushi ham shunchalik sovuq ediki, beixtiyor etim junjikib ketdi; indamay ayvonning to‘riga qarab yo‘l oldim.

Cholning yigirmanchi yillardagi suratlarini shu ko‘chadagi bir-ikkita san’atdan xabardor kishilar maqtashgandi; muzeyda ishlaydigan yortog‘im ham cholning suratlari ko‘rgazmaga qo‘yilganini aytgandi. Chol yigirmanchi yillarda komsomol bo‘lgan va bosmachilarga qarshi kurashgan, yangi hayot qurishda faol ishtirok etgan deyishgandi. Yigirmanchi yillarning shiddatli shamoli uni yuksak parvozlarga ko‘targan; o‘ttizinchi yillarda mas’ul vazifalarda ishlagan, deb hikoya qilishgan. U o‘sha amalida toki pensiyaga chiqarib yuborishgunlaricha uzoq yillar ishlagan ekan. Ko‘chadagilar uning o‘sha davr faoliyatini mishmishlar bilan qo‘sib-atib hikoya qilishardi. Chol ishdan ketgach, mana shu eski uyga qamalib olgan, hech kimga qo‘silmaydi, bir vaqtlar o‘zi ozor bergen kishilarni ko‘rgisi kelmaydi, deyishardi. Cholning xotini elliginchi yillarning oxirida o‘lib ketgan, faqat istorasi o‘zinikidan ham sovuq yolg‘iz o‘g‘li bor edi. O‘g‘li qimorboz, avvallari kissavur bo‘lgan deyishadi, keyin qotillik qilgani uchun qamalib ketgan, endi esa qimorning orqasidan kun ko‘rar ekan. U juda jizzaki yigit edi. Uni ikki marta ko‘chada ko‘rgandim. Aytishlaricha, u shaharning chekkasida bir beva bilan birga turar va oyda-yilda otasiga bir ko‘rinish berar, shunda ham har doim janjal bilan jo‘nab ketar edi. U cholning oldiga ko‘pincha birdan-bir ish uchun - pul so‘rab kelar, agar topib bermasa, g‘ovg‘a ko‘tarar, hatto ikki marta otasini urib ketgan, deb aytishardi. Ko‘plar “cholning puli bor, lekin hech kimga, hatto o‘g‘liga

ham ko‘zi qiymaydi, juda xasis”, deyishardi. Kim biladi, o‘g‘li ham otasi haqida shunday o‘ylasa kerak; u otasini zarrachcha hurmat qilmasdi. Uning ovozini ko‘chadan o‘tib borayotib eshitib qolgandim. “Hech narsangni bermayman - deb baqirardi u qandaydir qirindi tovushda, - agar topib bermasangiz, sizga qo‘sib uyga ham o‘t qo‘yaman”. So‘ng taraqa-turuqlar, ihrashlar, cholning nimadir deb so‘kingani eshitildi. Kechqurun uy bekasi o‘g‘li cholni yana urib ketganini aytdi. Cholning yigirmanchi yillardagi suratiga juda qiziqardim, umuman cholga qarab turib qiziqishim yana ham ortgandi.

Cholning ayvoni - unga ustaxona vazifasini o‘tasa kerak - oldi oynali, yozda derazalarini lang ochib salqinlatib qo‘ysa bo‘ladigan, keng go‘sha edi. Bu yerda har xil keraksiz ashqol-dashqol — sun’iy gullar, tuvaklar, turli ranglar yog‘ochlar, kitoblar olov ko‘tarib borayotgan ... haykal, toshdan yasalgan turli qurollar, to‘rlar, zanjirlar qalashib yotar va bu yerdan ham shilta hidi kelar, ayvondan ko‘ra allaneuchuk besarishta qaznoqqa o‘xshab ketar edi. Ayvon uzun bo‘lib, suratlar chizilgan yillariga qarab ko‘rgazmaga qo‘yilgandek terib qo‘yilgan, to‘g‘rirog‘i, bor-yo‘g‘i qirqqa yaqin surat va eskizlar “1957”, “1947”, “1937”, “1928”, “1926” va hokazo tartibda terib quyilgan edi. Suratlarni oralab borar ekanman, qandaydir zinalardan cholning umr tilsimoti yashiringan qo‘rg‘on tomon ko‘tarilib borayotgandek his etdim o‘zimni. Oxirgi, ayvonning burchagiga osib qo‘yilgan suratning tagiga!

“1921” sanasi yozib qo‘yilgan edi: chol shu yildan boshlab rasm chiza boshlagan bo‘lsa kerak, deb o‘yladim. Surat ancha uquvchizlarcha chizilgan bo‘lsada, ranglari yorqin va tiniq edi. Suratda quyuq o‘rmondan maymunni yetaklab chiqayotgan barvasta gavdali igit tasvirlangan edi. Yigitning ko‘zlari tiyrak va ishonch bilan porlab turar, maymunning bo‘yniga solingan kishan tarang tortilgan edi. Rasmda chol nima demoqchi bo‘lganini tushunmasam-da, lekin yigitning yuzidagi ishonchdan hayratga tushdim; qizg‘ish va javdari bo‘yoq yigitning qko‘nglidagi hissitni to‘la aks ettira olgan edi. Keyingi suratlarda

cholning qo‘li ancha kelshib, bo‘yoqlar tiniq o‘z o‘rnini topgan, tabiat manzaralari tobora go‘zallahib borardi, ranglar ham turfa xil edi. Biroq bir lahzada osmonu falakni qoplagan kuzgi qarg‘alar kabi suratlarga qandaydir mavhumlik yopirilib kirib kelardi, ... surat ortib borishi meni hayratga soldi, mavhumlik tasvirda ham, bo‘yoqda ham sezildi. Men har bir manzarada boshqa ranglar o‘rnini qora ranglar olayotganini guvohi bo‘ldim. Uttizinchi yillarda chizilgan suratlar esa yana ham mavhumroq edi, endi bu yillardagi suratlarni qora rang butkul qoplab olgandi. Chol suratlarni pala-partish chizgan bo‘lsa kerak, deb o‘ylagandim, chunki cholning mas’ul xizmat davri mana shu yillarga to‘g‘ri kelardi. Men suratlarga qarab turib, ularning maqsadu maslaksiz yozilganini his qildim. Faqat birinchi suratdagi yigitning ko‘zidagi qat’iyat va ishonch beixtiyor har qanday kishini o‘ziga rom qilib qo‘yardi, siz ham mana shu yigit izidan nomsiz, isyonkor safarga otlangingiz, vahimali zim-ziyo o‘rmondan avlodajdodlaringizni xurofot hamda bid’atning ... rashlaru alg‘ov-dalg‘ov hayot quyniga tashlagingiz kelib qolardi. Siz yigitning ko‘riga qarab tursangiz uning tantana qilishiga ishonardingiz. Muzeydagи do‘sni yana shunday ... boshidan kechirgan bo‘lsa kerak, cholni rosa maqtagandi. Ana shu suratida chol o‘zini qobiliyatli va istiqbolli rassom sifatida namoyon eta olgan edi. Agar cholning birinchi o‘n yillikdagi suratlariga e’tibor bersangiz, sizni ham beixtiyor cholning navqironlik davridagidek ulug‘vor kayfiyatlar chulg‘ab olardi.

Myen keyingi yillardagi suratlar shunchaki qo‘l chiqib ketmaslik uchun chizilgan bo‘lsa kerak, degan fikrga kelgandim; bu yillardagi suratlarda huvillab qolgan qishloqlar va ko‘chalar, egalari tashlab ketgan uylar, o‘ziga chorlab turgan qabristonlar, o‘lim isi kelib turgan ar xil qurollar, yig‘layotgan ayollar va bolalar, biyday dalani bosib ketgan o‘laksaxo‘r quzg‘unlar, murdalar ortilgan aravalalar, panjarali kameralar, yonib yotgan qishloq qandaydir qurquvdan (xuddi “Pomeyaning so‘nggi kuni” kabi) dong qotib qolgan olomon, sirli maxluqla, yirtqich hayvonlar, yuzlariga har xil jondorlarning niqoblarini kiyib olgan odamlar (karnaval bo‘lsa kerak deb o‘ylagandim), bazmu jamshid qilib o‘tirgan shotirlar,

aroq navlari, turli xil taomlar, yalong‘och ayollar, ma’suma qizlar, qovjirab qolgan gullarning suratlari aks etgan edi. Bu suratlar ilhom yo maqsad bilan chizilganiga ishonish qiyin edi. Bironta suratda ham aks ettirilgan manzaraga tushunmay, cholga qaradim. Chol ovqatini yeb bo‘lgan va menga teskari o‘tirgancha, matoga yana qo‘ng‘irroq tus berardi. U go‘yo mening bu yerdaligimni unutganday edi. Cholning keyingi suratlarida bironta ham mukammal tasvirlangan odamni ko‘rmadim. Hamma suratlar bo‘yoqlarning mato yuziga chaplab tashlanganidan iborat edi. Bu suratlarga xos mavhumlikdan hayratga tushdim. Chunki chol bularni eng yaxshi suratlari ichidan tanlab, terib qo‘ygan edi. O‘sha kuni men cholning mahalladoshlari maqtachalik rassom ekanligiga sira ishonmadim va uning suratlarini ko‘rib, yana ham hafsalam pir bo‘ldi. Bu suratlar menga umid qo‘shinlari tashlab ketgan umrning tashlandiq qarorgohlariga o‘xshab uyuldi. Endi uni shunchaki nomiga maqtashgan bo‘lsa kerak, deb o‘ylay boshladim. Suratlardagi mavhumlik negadir yuragimni g‘ash qilgandi. Biroq cholning hayoti bir paytlar bir kechchada porillab ochilgan guldek to‘sinq bilmas shiddat bilan boshlanganini, so‘ng bu shiddat hayotning mavhum irmoqlariga xuddi yoz yomg‘iri jazirama sahroga singgan kabi qqa‘shilib ketganini suratlariga qarab his etgandim. Uning o‘sha navqironlik davrini eslatayotgan qontalash va shilpiqlanib qolgan bo‘lsa ham, hali tiyraklik bilan tikiladigan ko‘zlarida qolgan edi.

Bu ko‘zlar ham har qanday ishonch va ... mahrum edi.

Cholning yoniga qaytar ekanman, u chizayotgan suratga bir zum ko‘z tashladim: ustiga chang tushmasin deb, doka yopib qo‘ygan suratda odamning va qandaydir hayvonning oyoqlari tasvirini ko‘rdim. Va bu hol meni biroz hayratga soldi — polotnoda nihoyat ko‘p yillardan keyin odam surati paydo bo‘lgan edi. Surat hali chala edi. Munkayib qolgan chol surat qarshisida tiz cho‘kib turganga o‘xshardi, bo‘yoqlar ham cholga zo‘rg‘a bo‘ysunar, go‘yo ular ham bu behuda va mavhum manzaralarni aks ettirishdan butkul charchaganday edi.

-Xo‘sh, - dedi u mening idin-tovoqni yig‘ishtira boshlaganimni ko‘rib, suratlar sizga yoqdimi?

Yelka qisdim va suratlarga tushunmaganimni aytdim. U charchaanidan milklariga yosh sizib chiqqan horg'in ko'zlarini menga achingandek, bir zum qadab turdi-da keyin bosh silkidi.

-Ha, to'g'ri, biz tushunarsiz yashadik, - dedi g'amgin tusda, - har osgan qadamimiz odamlar uchun shubhali va qorong'u bo'lib qolgan, albatta, bunga siz emas, o'zimiz aybdormiz.

U xuddi odamning ustidan kulayotganday yoki kinoya qilayotganday istehzo bilan gapirar, har bir so'zi asablarni zirqiratib, arralab o'tardi. Kim biladi balki menga shunday tuyulgandir. U endi gap tamom deganday qo'liga mo'yqalam oldi. U men bilan boshqa gaplashgisi kelmayotgan, agar meni bu yerda kechkacha ... ham uning biron og'iz gapirishi gumon edi. Idishni olim tezd chiqib ketdim. Chol menga qayrilib ham qaramadi. Uzoq vaqtgacha uning gapini o'zimcha mulohaza qilib yurdim. Biroq menga nima uchun shunday deganiga hech tushuna olmadim. Cholning suratlari ichida menga faqat maymun yetaklab borayotgan yigit surati yoqqan edi. To'g'ri, men tasviriy san'at sohasida yomon muxlis edim, lekin yigitning ko'zlaridagi ishonchdan hayratga tushar va uning qat'iyatli chehrasi teztez ko'z oldimda namoyon bo'lib turardi. qolgan suratlari esa alog'-chalog' esimda qolgandi. Ikki kunlardan so'ng esa birinchi suratdan boshqa hamma suratlardagi manzaralar bir-biriga aralashib ketdi, so'ng yo'lyo'lakay daraxtga bir zum qo'nib o'tgan qushlar kabi xotiram daraxtlaridan uchib ketdi.

Boshqa bir kuni cholning oldiga ovqat olib kirganimda yana o'sha shilta hididan ko'nglim ozib ketayozdi. Lekin men endi har burchakda puturdan ketayotgan umrning tanazzulidan darak berib turgan qo'lansa hidga ko'nika boshlagan edim. Biz bu gal ancha suhbatlashib qoldik. Zig'i shundaki, u juda savodli edi va shu vaqtgacha nimaiki qilgan bo'lsa, hammasini bilib, anglab turib qilganga o'xshardi. U Titsiani ham, Pikassoni ham, modernizmning hozirgi namoyandalari Jorj Brak va Umberto Bachanini ham bilar va ularning ijodidan juda yaxshi xabardor edi. Biroq biz o'sha kuni u bilan mutlaqo boshqa narsalar

haqida gaplashgandik. U hayotda nima yaxshiligu nima yomonlik, hech qachon farqlab bo‘lmaydi, yaxshilik — ayni paytda kimlargadir yomonlik, yomonlik esa ayni paytda kimlargadir yaxshilik bo‘lib tuyuladi, mening umrimda anglagan ulosam shu dedi.

-Yo‘q, - dedim men uning salmoq bilan, mening xulosam hammaning xulosasi bo‘lishi kerak degan ohangda gapirishidan g‘ashim kelib. — Bular mutlaqo qarama-qarshi tushunchchalar. Yomonlik yaxshilik bo‘lishi sira ham mumkin emas, nimaiki hurlikka, erkka, ezgulikka zid bo‘lsa, u yomonlikdir, - dedim.

U hali yosh bola ekansan-ku, degandek dimog‘ aralash kului. So‘ng jiddiy tortib, nelarnidir eslaganday gapira boshladi.

Men umr bo‘yi monlikka ham teng xizmat qildim. Chunki nima ish qilsam o‘sha ishim ikki qismga bo‘linar edi. Siz bilan tortishmoqchi emasman, faqat bitta misol keltirmoqchiman. Bir vaqtlar juda martabali bir do‘stim bo‘lardi, o‘zi sofdil edi-yu sal obro‘talab edi. U yigirma yetti yil amal kursisini hech kimga bermadi; usta odam edi. U nima qilardi, deng? Yuqoridan shuncha xom-ashyo bor, deb buyruq kelardi. Buyruqni inkor etib yoki muhokama qilib bo‘lmassi, — biz ana shunday ruhda tarbiyalaganmiz, — uni bajarish kerak! Bajarish uchun butun korxona ishchilari o‘n to‘rt-o‘n olti soatdan ishlashlari kerak. Bu esa — bilasizki, rasman mumkin emas. To‘g‘rirog‘i, mumkinu ya’ni turli-tuman tashabbuslar tashkil qilib bajarsa bo‘ladi, biroq o‘n iki oy bunday qilib bo‘lmaydi. Odam mashina emas. Bu minglab odamlarni mayib qilishi mumkin. Yo‘q desang, kursini topshiraver; boshqasi albatta shunday qiladi. Bitta sen halol bo‘lganining bilan hayot go‘zal bo‘lib qolmaydi. Shunda mening do‘stim eng maqbul yo‘lni talagan. Ta’kidlayman, o‘zi juda sofdil, oqibatli odam edi. U hamma ishni bajarildi deb, qog‘ozga qo‘l quyib beravergan. Boshqa korxonalarni ham bu ishga tortgan, ular «bizdan bugina, sizdan ugina» deb yozib beravergan. Azbaroyi odamlarning taqdirini o‘ylab shunday qilgan. Do‘stim shu yo‘l bilan o‘zicha

buyruqlar mustabidligiga qarshi kurashgan. Yigirma yetti yil odamlarni qog‘ozlar bilan himoya qilgan. Oxir oqibatda uning ajali yetib o‘ldi. Keyin uning go‘riga tosh otish boshlandi; u himoya qilgan mingminglab odamlar unga birinchi bo‘lib tosh otdilar — o‘rniga boshqani saylashdi, bu boshliq buyruqni qanday bo‘lsa shunday bajarish uchun qo‘lidagi hamma narsadan foydalandi — hatto kuchdan ham.

Daromad kamaygan, sadaqa so‘rash ko‘paygan, bora-bora odamlar oldingi boshliqni afsus bilan eslashgan, uning to‘g‘ri yo‘l tanlaganini anglashgan. Xo‘s, ayting-chi, bu yerda nima yaxshiligu nima yomonlik. Buni qanday farqlasa bo‘ladi. Biri odamlarni o‘ylab, qonunni suiiste’mol qildi, ikkinchisi qonunni o‘ylab, odamlarni xarob qildi. Men bu yerda qaysi biri yomonlik, qaysi biri yaxshilik, hech farqlay olmayman. Umrim davomida ham buni farqlay olmadim.

E’tqod-chi, — dedim uning salmoq bilan gapirishidan achchig‘lanib, to‘g‘risi uning dalillari meni biroz dovdiratib qo‘ydi; u o‘z umri haqida juda ko‘p o‘ylagan edi, aftidan, shuning uchun qat’iyat va ishonch bilan gapirardi. — E’tiqodli odamlar to‘g‘rirog‘i, e’tiqodi mustahkam odamlar yaxshilik bilan yomonlikni juda teran anglaydilar, — dedim va gapimdagи balandparvozlikdan o‘zim uyalib, to‘xtab qoldim.

E’tiqod! — dedi u g‘ussali ohangda, — agar bir umr e’tiqod qo‘yib, shunga ishonib, kurashib yonib-kuyib ... e’tiqod qo‘ygan narsangiz puch, yolg‘on va puflab shishirilgan sharday omonat, siz ezgulik deb sig‘ingan narsalar asli razolat ekanini anglab qolsangiz bunday demasdingiz; ana shunda umringiz yomonlik bilan yaxshilikning farqi qolmagan xuddi yo‘ldan chiqib ketgan shaldur-shuldur, bo‘mbo‘sh aravaga aylanardi. Siz esa bo‘shliqni to‘ldirish va aravaga nimadir yuklash uchun har qanday yovuzlikdan ham qaytmasdingiz. Shumi e’tiqod?! Men bu so‘zni ishlatmay qo‘yganimga ham qirq yildan oshib ketdi. Bu so‘z shunchalik serjilo, jimjima, soxta, balandparvozki, eshitsam ko‘nglim ayniydi.

U alam bilan xirillab to‘xtab qoldi. Uning jahli chiqqan, negadir ko‘ngli to‘lib ketgandi, hozir biron narsa desam, jerkib tashlashi aniq edi. U o‘zining fikrini ma’qullamaganlarni yoqtirmasdi, aftidan. Uning butun umr yaxshilik nima-yu, yomonlik nimaligini izlay-izlay, javob topolmaganini o‘zimcha tasavvur qilib, dahshatga tushdim hatto uning o‘sha kuni tushunmagan rasmlariga ham andak tushunganday bo‘ldim; bu suratlar — o‘z-o‘zga ishonmagan, umrini turli aldovlar va yupanchlar bilan behuda o‘tkazgan odamning hayot haqidagi o‘ylari, uning mavhumlikka mustahiq qalbining parcha-parchalari edi. Umri poyoniga yetgan sayin dunyoning beshafqat xulosalaridan qochib, u mana shu sokinlik va yolg‘izlikning quyuq o‘rmoniga yashiringandi. O‘zining o‘tgan umriga mana shu yolg‘izlik qo‘ynidan turib nazar solmoqchi, o‘z umriga ham xulosalar yasamoqchi edi, shekilli, uning gaplaridan bu sezilar, lekin menimcha o‘ziga zarur xulosani hanuz topmagandi. Uning yolg‘iz hayoti menga chirigan daraxtning yolg‘izligidek mudhish ... bo‘lib tuyulgandi. Aftidan, yolg‘izlik uning so‘nggi bospanasiga aylangandi. Uning gaplarida odamning vujudini zaharlovchi nimadir bor edi. U bilan chorak soat gaplashib, o‘zimni yomon his qila boshladim. Nimagaki ishonsam, chol hammasini chilparchin qilib tashlagan, meni ham o‘zining ishonchsizligi bilan zaharlab ulgurgandi. O‘sha kundan so‘ng men ichimga kirib olgan cholning qiyofasidagi shaytonni vujudimdan quvib chiqarguncha, uzoq vaqt o‘z ko‘nglimni o‘zim ko‘tarib, faqat quvnoq hikoyalar o‘qib yurdim.

Cholning oldiga boshqa qaytib chiqmadim. Hovlidagi chirkin va shilta hididan, cholning qo‘lansa gaplaridan hamon o‘zimga kelolmayotgandim. Eslasam ko‘nglim aynir, birdan hamma narsaga qiziqishim yo‘qolar edi. Uy bekasi haftada bir marta cholga ovat kiritib turar, uning berilib qandaydir surat chizayotganini aytardi. U suratga tushunmasdi, shuningdek, cholni ham yomon ko‘rar, lekin qarovsiz cholga butun ko‘cha ovqat kiritib turgani uchun ulardan ayrilgisi kelmasdi. Umuman, beva ayollarda tabiiy shafqat hissi bo‘ladi. Ularning ko‘ngli yumshoq, tez ta’sirlanib, tez hafa bo‘lishadi. Men bora-bora cholning suratlari bilan ham, uning taqdiri bilan ham qiziqmay qo‘ydim, o‘sha payti Onettining

hikoyalarini tarjima qilayotgandim. O'sha paytlari chol kamdan-kam esimga kelardi, esimga tushgan onlari esa ko'z oldimda qora sharpa kabi paydo bo'lar va bu garpa meni tinmay ta'qib qilardi. Ba'zan birinchi suratni eslab, xayollarga tolardim, xayollarim ham suratdagi yigitning ko'zлari kabi huzurli ediyu Meni faqat chol chizayotgan so'nggi suratgina ozroq qiziqtirib turardi, chunki, sezishimcha, chol oxirgi suratini chizmoqda edi. Uni ba'zan yo'lida — oziqovqat do'koniga chiqib kelayotgan holatda ko'rib qolardim va kunma-kun hayot asari yo'qolayotgan yuz-ko'zlariga, o'z umri uchun ayanchli xulosalar to'lib yotgan va uni masxara qilgandek ko'klam bilan birga tobora go'zallahib, yasharib borayotgan atrofidagi olamni ko'rmaslik uchun yerga yana ham ko'proq egilib qolgan qaddi-qomatiga qarab, shu mudhish fikrimga ishongim kelardi. Butun qish davomida cholni ikki marta — darvoza yoniga kursi qo'yib, o'zini chuvoqqa toblab o'tirgan holda ko'rdim. Uy bekasi ko'p javraydigan ayol edi. U butun mahallani g'iybat Kilib chiqar, so'ng yana cholni taftish» qilardi. U chol haqida ijirg'anib gapirardi, lekin ovqat kirgizishni kanda qilmasdi: unga ayniqla, cholning mahallako'ynikiga o'xshamagan odatlari yoqmasdi.

Bahorning boshlarida hordiq oyidan qaytib kelib, uyga kirishim bilan uy bekasi ko'zida yosh bilan qarshi oldi va uch kun burun cholning qazo qilganini aytdi. Vujudimgasov uq shilimshiq narsa o'rmalaganday junjikib ketdim va birdan xayolimga cholning suratlari keldi. «Uy hali qarovsiz, — dedi menga uy bekasi, o'g'lini hech qayerdan topisholmadi, yana qo'lga tushgan bo'lsa kerak».

Kechqurun cholning hovlisiga o'tdim. Hovli huvillab yotardi. Shilta hidi cholning o'zi bilan birga yo'qolgan, biroq chirkin hid hali gupillab dimog'ni kuydirardi. Cholning suratlari bir chekkaga yig'ishtirilib qo'yilgandi. Cholning so'nggi suratini izlay boshladim. Chol suratni chizib ulgurganmi, yo'qmi, meni juda qiziqtirardi. Sariq matoni nihoyat topdim va uning yuzidagi qog'ozni yulib olib shosha-pisha suratga tikildim. Ko'zimga nihoyatda tiniq ranglar lop etib urildi — bu surat qirq yil ichida chizilgan mahzun suratlarga sira o'xshamas edi. Men

rasmdagi manzaradan bir nafas tong qoldim; suratda xuddi birinchi rasmdagi o‘rmon aks ettirilgan edi. Aqat bu suratda maymun qarab turgan umidsiz ko‘zlariga g‘am cho‘kkan munkaygan bir cholni o‘rmon sari yetaklab ketardi.

Suratning shoshib chizilgani ko‘rinib turardi. Ko‘p joyiga bo‘yoqlar nomiga chaplangan edi. Cholning o‘zi ham umri oxirlashganini bilgan va shuning uchun shoshgandi. Rasmning orqa fonidagi ranglar me’yoriga yetmagandi. Bu quyosh botib, atrofga cho‘kkan xira qorong‘ulikni eslatardi. Biroq ana shu qo‘ng‘ir rang fonida maymun va odamning qiyofasi ravshan aks etgan, odamning yuzidagi umidsizlikni yana ham kuchaytirgan edi.

Men o‘shanda beixtiyor hayot kabi san’atning kirish va chiqish eshiklari borligi haqida o‘ylagandim. Cholning suratlari go‘yo sirli qo‘rg‘on edi; cholning ilk suratini ko‘rgan daqiqadayoq .u qo‘rg‘onga kirib qolgandim va uning suratlaridan qolgan sovuq hissiyat bilan birga yuragim g‘ash bo‘lib yurishimning sababini topganday bo‘ldim. Shu kungacha cholning qo‘rg‘onida yashagan edim va hozir bu qo‘rg‘on eshididan biyday kimsasiz dalaga chiqib qolganday his etdim o‘zimni. Vujudimni shilimshiq, jirkkanch narsa o‘rniga bir... yo‘qotib qo‘ygan odamday cholning suratlaridan qolgan vahima eslatadi.

O‘zim yashaydigan uyga qaytib kirganimda beka mahalla komitetida ishlaydigan keksa bir kishi bilan gaplashib o‘tirardi. «Mahalla keksalari yig‘ilishib, uyni kimgadir bermoqchi bo‘lishibdi, — dedi u menga, — uy olaman deb yurgandingiz, mana shu uyni ola qoling».

Birdan dimog‘imga hovlidagi dov-daraxtlardan tortib, gullaru har bitta g‘ishtgacha o‘rnashib qolgan chirkin hid gup etib urildi; ko‘nglim behuzur bo‘lganday ijirg‘anib ketdim.

— Yo‘q, — dedim men o‘z xonamga ketar ekanman. — Hozircha uysiz yashab turaman.

***NAZORAT SAVOLLARI:***

1. N.Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasining asosiy g‘oyasini tahlil qiling.
2. Hikoyadagi mazmun jamiyat bilan aloqadorlikda tekshirishda asosan niomalarga e’tibor qaratiladi.

***ADABIYOTLAR:***

1. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. - Т.: «Ўзбекистон», 2014.
2. Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. –Т. “Akademnashr”. 2014.
3. Каримов Б. Руҳият алифбоси. –Т.Faфур Ғулом номидаги нашриётматбаа ижодий уйи. 2018.
4. Каримов Б. Абдулла Қодирий феномени (монография). Тошкент. «Info Capital Grop» нашриёти. 2019 30 б.т.
5. Каримов Б. Икки даҳо – икки бебаҳо. Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти. 2020 йил. 5 б.т.
6. Каримов Н. XX аср манзаралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009

***2-AMALIY MASHG’ULOT:******ADABIYOTSHUNOSLIK METODLARI ORASIDA BADIY ASARNING SHAKLINI O’RGANISHGA QARATILGAN MAXSUS METODLAR******REJA:***

7. *Badiy asarning shakliy qirralarini o’rganadigan metodlarga xos tamoyillar*
8. *Adabiyotshunoslikdagi badiy asar shakliga qaratilgan metodlar shakliy kompozitsion unsurlar*
9. *Formalizm va vulgar sotsiologizm qiyosiy konsepsiylar*
10. *Struktural - analizmetodining asoslari va namoyandalari; strukturalanaliz metodining imkoniyatlari*

**Tayanch tushunchalar:** formalizm, formal mакtab, formal metod, immanent analiz, mikroanaliz, matn talqini, semiotik tahlil.

Yozuvchi, badiiy asar va kitobxon munosabati xususida; Badiiy ijod namunalarini germenevtik talqin etish tajribasi; Germenevtik metodga doir ilmiynazariy tushunchalar muhokamasi; Badiiy asarni qabul qilish masalasi: resepsion estetika va uning o‘ziga xos xususiyatlari. XXI asr o‘zbek adabiyotshunosligi tarixida yangi sahifalar ochdi.

Adabiyotshunoslik mezonlari o‘zgardi. Ilmiy-nazariy jihatdan takomillashdi, yangi izlanishlar natija berdi, dunyo ilm-fanida mavjud bo‘lgan yangicha tadqiqot usullari kirib keldi. Shuningdek, o‘zbek adabiyotshunosligi yangi atamlar bilan boyibgina qolmadi, balki ayni adabiy-imiy tushunchalar amaliyotga tatbiq etildi.

Shunday tushunchalar sirasiga germenevtika atamasini ham kiritish mumkin. To‘g‘risi, bugun bu istiloh mutaxassislar orasida urchga aylandi. Gohg‘ida bilib bilmay atamasuyarlik oqibatida bu atamaga ruju qo‘yish hollari ham kuzatilmoxda. Shu bois dunyo adabiyotshunsoligida talqin nazariyasi o‘laroq qabul qilingan germenevtikaning o‘zi nima degan bir muammo ustida muxtasarroq to‘xtalish zarurati mavjuddir.

1. Germenevtikadan favqulodda birov tushunmaydigan mujmal va mavhum maydon yasab olish yaramaydi.
2. Dunyo ilm-fanida mavjud bo‘lgan bu tadqiq usluining qaysidir qirralari o‘zbek adabiyotshunosligi tarixida ham mavjuddir. Ushbu tadqiqot usulining qanday ilmiy asoslari, tamoyillari, afzalliklari bor ekan degan bir savol ko‘pchilikni qiziqtirsa kerak.
1. Mant muhim.
2. Germenevtik doir tushunchasi bor.
3. Mantiqiy fikrlashga asoslanadi. Butun va qism munosabati.

4. Mutloqlashtirishga zarurat yo‘q.
5. Adabiy asarning ilmiy haqiqatini kashf etish, boshqalar sezmay, bilmay qolgan unqtalarini namoiysh etishning ajnabiycha bir nomi – bu germenevtikadir.
6. Bunday tafakkur tarzi barcha ilm ahliga xosdir.
7. Germenevtika har qanday insonning tafakkur tarziga mansub hodisadir. Inson borki kimnidir, nimanidir tushunishga, anglashga, bilishga harakat qiladi. O‘zi anglagan haqiqatlarni kimlargadir tushuntirish, tahlil etish, baholash va talqin etish niyatida bo‘ladi.
8. Matematiklar raqamlardan hosil bo‘lgan formulalarni tushunadi va tushuntiradi. Fizikla fizik qonuniyatlarni, ximiklar kimyoviy reaksiyalar mohiyatini tushuntiradi.
9. Tarjimashunoslik sohasida ham germenevtik tafakkur o‘ziga xos tarzda namayon bo‘ladi. Boshqa tilda bitilgan mantnni tarjimon qanday anglaydi va u larni o‘z tilida qaymsi so‘lar bilan ifodalaydi. Albatta bu o‘rindla ham badiiy asardagi ramzlarni, iboralarni, frazeologik birlıklarni tarjimon anglab olishiga doir tafakkur tarzi o‘z vazifasini o‘taydi. Bitta she’riy mantnni ikkita shoir ikki xil tarjima qiladi. Bitta romanni ikkiitt atrjimon ikki xilda tarjima etishi mumkin. Umumiy tarzda bu hodisaga boshqa tildagi matnni tushunish va uni o‘zi tarjima qilayotgan tilda tushuntirish hodisasi sifatida qarash o‘rinlidir.
10. Dunyo ramzlardan atkriyu topgan. Ramzlarning ayrimlari tabiatda o‘zo‘zidan mavjuddir. Odalmar uning ortida ma’nolar topadi. Shu bilan birga inson zoti ham o‘zlari uchun turli ramza va belgilarni o‘zlari uchun asos qilib olishadi. Musulmonlar yarim oy ramzini Mmasjidlari tepasiga belgi siftaida qo‘yishadi. Nosorolar xochni razm qilibolishgan. Bundan tashqari har bir mamlakatning bayroq va gerb-tug‘ro kabi ramzlari ham mavjuddirkim, ularni o‘qish, uqish, tushunish lozim bo‘ladi. Bu o‘rinda ham germenevtik tafakkur va uning ichiki qonuniyatlari o‘z vazifasini o‘tashi lozim bo‘ladi.

11.Germenevtika juda keng tushuncha. Faylasuflar, tabiiy soha olilmari, adabiyotshunoslari, tarjimonlar undan o‘z sohasidagi metodologik asos, o‘z sohasiga taalluqli bo‘lgan hodislarni tizimli ravishda talqin qilishlari uchun bemalol foydalanishlari mumkin. Haqiqatni topishga yordam beradigan metodlar hamma vaqt keng ko‘lamli bo‘ladi. Ilohiyotga tegishli haqiqat hamma vaqt o‘zgarmas va mutloqdir. Amoo inson tafakkurining mahsuli bo‘lgan kashfiyotlar, asarlar, san’at namunlari mohiyatidagi haqiqat turlanib turadi. L.Shestov buni dunyoda qancha odam bo‘lsa ularning har birining o‘z haqiqati bor, dunyoda qancha odam bo‘lsa, shuncha haqiqat mavjuddir, degan ma’noda ifoda qiladi.

### **Quyidagi adabiy manbalarni turli metodlar bo‘yicha talqin qiling:**

#### **Adabiy manbalarga ilmiy-nazariy tushunchalarni tatbiq qiling:**

*Maksim Gorkiy*

#### **Qiziqliklar**

Bu kun man Tarvitskiy ko‘prugida kichkinagina, sariq sochli, yaltiroq poypoq kiygan bir xotinni ko‘rdim. Uning yuzi qiz bolanikidek, hali tamom yetmagan (etilmagan ma’nosida – B.K.) edi. Ko‘kimtil qo‘lqop kiygan yelka va qo‘l bilan panjarani ushlab, xuddi Neva daryosiga irg‘ib tushishga tayyorlang‘andek o‘zining kichkina qizg‘imtil tilchasini og‘zidan chiqarib, oyga qarab cho‘zmakda edi. Osmonning eski va ayyor tulkisi qora tutundek bulut orqasidan chiqdi. Bu kun oy juda to‘lg‘an edi. Ul mast bo‘lib yuradig‘an odamning tumshug‘idek qalin va qizg‘imtil edi. Xotin oyni eng qattiq va - men aytsam - jinoiy tus bilan po‘pisalar edi.

Bu voqealarni ko‘p ishg‘ol qilg‘an va ko‘p qiziqliklarni esimga tushirgan edi. Odamlar yolg‘iz bo‘lg‘anda ularg‘a qarab yurishni va ularning aqlsiz harakatlarini ta’qib etishni suyar edim. Bundoq harakatlarni bo‘lsa aqlsizlik demasdan bo‘lmaydi.

Men go‘dakligimdan beri ingliz masxaraboz Mirondolni esimda tutaman. Bir kun bo‘sh va qarong‘i o‘yinxonadan o‘tib turib, u oynaning oldida to‘xtadi, boshidan qalpog‘ini ko‘tarib, o‘z aksiga ta’zim bilan bukulub salom qildi. O‘yinxonada hech kim yo‘q edi. Men berkinib o‘tirg‘an edim. U meni ko‘rmadi, ko‘ra olmadi. Bu nima qiliq? O‘ylab turib tushundim- masxaraboz. Buning ustiga o‘zi ingliz. Qiziqlik uning go‘sht va qoniga singib ketgan.

Lekin man Chexovni ko‘rdim. U bog‘da oftobning shu’lasini telpagi ichiga solib, uni shu holda shu’la bilan boshiga kiyib olishga urinar edi. Harakatining muvaffaqiyatsizligi, oftob shu’lasini ovlashdan heya narsa chiqara olmag‘ani uning achchig‘ini keltirdi. Uning beti tirishib qarong‘ilanar edi. Oxiri g‘azab bilan telpagini kiydi, oyog‘i ostida yotgan itni bir tepdi. Osmonga egri va achchiqlanib qaradi-da, uyiga kirib ketdi. Meni ko‘rganida og‘zining bir burchagi bilan kului va:

-Salom alaykum, Balmontning "Oftob o‘lan isi beradi" degan narsasini o‘qidingizmi? Axmoqlik, Rusiyada oftob Qozon sobunining isini, bu yer va Qrimda tatarlar terining isini beradi, -dedi.

Ul yo‘g‘on qizil karandashni kichkina shishachaning og‘ziga tiqishga qiynalib urinadi. Bu esa hikmat tabiat qonunini yengishga ochiq intilish edi.

L.N.Tolstoy bir kuni echkiemarning oldig‘a kelib, sekingina: -Yaxshimisan? - dedi.

Echkiemar Diyul bir yo‘lidag‘i bir chakalakzorda, tosh ustida isinib yotgan edi. Tolstoy uning oldida qo‘lini belbog‘iga tiqib, tevarakka gumonsiragan bir nazar tashlab, ulug‘ inson yana echki emarga qarab:

-Meni so‘rasang, hech yaxshi emasman, - dedi.

Kimyo prufessuri Tixovinskiy oshxonada o‘tirub mis la’liga tushgan aksidan so‘radi:

- Ha o‘rtoq, yuribsanmi?

Bir javob olmag‘anidan keyin prufessur og‘ir bir ufladi. Va qoshini jiyirib, betini tirishtirib, o‘zining la’ldagi aksini aritib tashlashga kirishdi. A. Vladimirskeviy etigini oldiga qo‘yub, unga qarab:

-Qani, yur-chi, yurolmaysanmi, ha, yurolmaysanmi?,- dedi. Keyin o‘zi takabburlik bilan natija chiqardi:

-Bildingmi, men bo‘lmasam, sen hech qaerga borolmaysan!

- Nima qilyapsiz, Fyodur? - deb uyiga kirib turib so‘radim.

- Mana, etigim eskirib ketibdi. Endigi etiklar yomon bo‘lib qolgan,-dedi.

Bir kun mening mehmonxona qo‘snum, Varonej mulkdori butunlay xushyor bo‘lgani holda adashib menim hujramga kirib qoldi. Men ko‘rpamda yotg‘an edim. U ham tamom kiyangan emas edi. Chirog‘lar o‘chirilg‘an edi. Ko‘rpamni sal ko‘targach, qo‘snimning oriq, kulimsiragan yuzini ko‘rdim. Ul o‘z-o‘ziga so‘zlashmakda edi.

-Kim bu? - dedi.

-Men taqsir, bu sizning uyingiz emas.

-A, afv eting.

-Buyuring! - degan edim, u to‘xtadi. Tevaragiga qaradi. Mo‘ylabini tuzatib, oyna oldig‘a kelib, gurunglay boshladi:

-Men adashdim-m-m-m-m. Bu qanday voqea bo‘ldi-i-i-i-i , - dedi. Va sekingina oyoq uchida yurub uydan chiqib ketdi.

Xotinlar ham kiyangan choqda yoki biror muvaffaqiyatdan keyin o‘zlarini bilan so‘zlashadilar. Ammo man bir kun o‘qig‘an bir xotinni ko‘rdim. U yolg‘izlikda shokalad yemoqda va har kanfetini yemasdan ilgari gapirar edi:

- Man sani yeb qo‘yaman.

Keyin so‘rardi:

-Ha yedimmi?

Ikkinchi kanfetini yana:

- Man sani yeb qo‘yaman, ha yedimmi? - deb takror qilar edi. Besh minutgacha shu hol davom etdi. Yuzi viqorli xotinning ikki ko‘zлari ham tizzasi ustidagi qutida bo‘lg‘an shakoladga tikilgan edi.

Teatrning zalida chiroylikkina qora sochli bir xotin o‘yin boshlanishidan kech qolib, oyna oldida sochini taragani holda qattiq va ta’sirli tovush bilan:

-Ha shuning uchun o‘lush kerakmi? - dedi. Zalda mendan boshqa hech kim yo‘q edi. U ham meni ko‘rgan emasdi. Ko‘rganida bunday o‘rinsiz bir gapni gapirmas edi. Bizning Rusiyada munday qiziqliklar juda ko‘p, men ularni ko‘p uchratdim.

**Y.Omon**

“Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnali, 1927 yil.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Шарқ мумтоз поэтикаси (Х.Болтабоев талқинида). -Т. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” далват илмий нашриёти. 2008.
2. Теории, школы, концепции. М. 1975.
3. Қосимов Б. Миллий уйғониши. «Маънавият». 2002.
4. Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури тарихи очерклари. – Т: “Фан”, 2008.
5. “Ўзбек адабий танқиди” Антология. -Т., “Turon-Iqbol”. 2011.
6. Ҳожиаҳмедов. А. Мумтоз бадиият малоҳати. -Т., Шарқ.1999.
7. Эшонқул Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадиий талқини. “Фан”.Т.: 2011.

**3-AMALIY MASHG‘ULOT****FORMALIZM VA VULGAR SOTSOLOGIZM QIYOSI  
REJA:**

- 12. Adabiyotshunoslikda lingvistika masalasi**
- 13. Badiiy asar tili va poetik nutq muammolari**
- 14. Ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati**
- 15. Adabiy tilni boyitishda adiblarning roli masalasi**
- 16. Lingvistik metod imkoniyatlari**

**Tayanch so‘z va iboralar:** badiiy so‘z, badiiy nutq va til, psixolingvistika, lingvopoetika, so‘z va obraz, kalit so‘z, monologik va diologik nutq, tovush rangi, uslub, sheva, fonetika, leksika, stilistika.

Badiiy adabiyot san’atning boshqa turlaridan aynan “so‘z san’ati” ekani bilan ajralib turadi. Badiiy so‘z va ularning turli shakldagi birikuvlardan badiiy matn maydonga keladi. Badiiy adabiyot uchun obrazli tafakkur va tafakkur tarzi uchun estetik ta’sirga ega so‘z muhim sanaladi. Poetik so‘z orqali turli obrazlar, moddiy va ma’naviy borliq tasvirlanadi. Shuning uchun til badiiy adabiyotda eng asosiy unsurlardan biri sanaladi. Insoniyat jamiyatidagi so‘z, til, nutq hodisasini adabiyotshunoslik ham, tilshunoslikning individual tarzda tadqiq qiladi.

Tilshunoslik maxsus fan sifatida tilning umumiy tabiatini, tilning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini, kommunikatsion tomonini, til falsafasini, tilning grammatik qurilishini, areal, sotsial jihatlarini o‘rganadi. Ayni choqda, stilistika qismida turli uslublarni tekshiradi. Uslublar ichida badiiy uslub bevosita badiiy asar tilidagi xususiyatlarni tekshirishga qartilgan tilshunoslikning bir sohasi sanaladi.

Aslida, til va adabiyotni bir biridan ajratib qarab bo‘lmaydi. Badiiy mant ichidagi so‘z alohida lug‘atlardagi so‘zdan, badiiy asar tili qoliplashgan adabiy tildan, badiiy matn aynan maddiyashgan badiiy asardan farq qiladi.

Xo‘sh, lingvistik metod deganda nimani tushunish kerak? Badiiy asar tiliga lingvistik yondashuv qanday bo‘ladi? Aslida barcha adabiyotshunoslik metodlari

badiiy asarni tekshirish jarayonida asar tiliga, nutq qurilishiga alohida urg‘u beradigan o‘rinlari mavjud. Estetik, biografik, formal, sturktural, psixologik jihatdan yondashuvlar jarayonlarda badiiy asar tiliga diqqat qilinmasligi mukmin emas. Badiiy asar tili adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlarining oralig‘idagi o‘rinni egallaydi. Har ikki fan sohasi uchun ham ob'ekt sanaladi.

Lingivistik vositalar yordamida badiiy asarning g‘oyaviy-emotsional qirralarini ko‘rsatish mumkin. Bunda matndagi badiiy so‘zga, takrorlarga, yangi so‘zlarning paydo bo‘lishiga, eski so‘zlarning qo‘llanilish doirasiga, umuman olganda, badiiy tasvir vositalariga diqqat qaratiladi.

Ta’kidlash lozimki, ayrim olimlar olim juda sodda qiyoslash bilan, badiiy adabiyotning materiali - so‘z, til... Badiiy adabiyot til asosiga qurilgan. Buni kitob

qog‘oz va tipografik bo‘yoqlardan tarkitb topganiga o‘xshatish mumkin, deb hisoblaydi (Gukovskiy G.A.)

V.V. Vinogradov esa badiiy asar tiliga, uslub masalalariga filologik tarmoqlarning ikkalasiga ham yaqin turadigan, ammo shu bilan birga har ikkalasidan ajralib turadigan alohida “badiiy asar tili haqidagi fan” sifatida qaraydi. Agar badiiy nutq stilistikasiga alohida fan sifatida ajratiladigan bo‘lsa, uning ob'ektini olim quyidagi tarzda belgilaydi:

1. badiiy adabiyot stili;
2. badiiy so‘z spetsifikasi;
3. so‘z va obraz masalasi;
4. badiy asar uslubi;
5. badiiy asar kompozitsiyasi uslubi;
6. badiiy obrazlar uslubi.

Bundan maqsad matnga mos tahlil yo‘li bilan badiiy asarning o‘ziga xos qonuniyat va uslubiy xususiyatlarini ochib berish, shuningdek, ma’lum bir adibning individual uslubini, adabiy maktab va badiiy asar uslubini aniqlash hamda tavsiflashdan iboratdir. Shu tarzda u yoki bu milliy adabiyot stilistikasining tarixi yaratiladi<sup>24</sup>.

Badiiy matnni lingvistik jihatdan tadqiq qilganda avtor obrazi, roviy, hikoyachi, lirik qahramon, nutq tiplari, matn ritmi va boshqa turli unsurlarga diqqat qaratiladi. Albatta, badiiy matn markazini avtor obrazi egallaydi. Matn uslubini, nutqdagi turli ohanglar almashinuvini, avtor nutqi bilan roviy nutqini aynan lingvistik metod vositasida aniqlashtiriladi.

Adabiyotshunos olimlar ta’kidlashicha badiiy asar matni murakkab strukturadan iborat. Unda 1.g‘oyaviy-estetik (mazmun jihat), 2. janrkompozitsion (shakl jihat) hamda til sathi (nutqning estetik tizimi) farqlanadi. Tabiiyki, bu struktura sathlarga ajratilish shartli. Qolaversa, badiiy asar maydonga kelishidagi psixologik jarayonlar, uni o‘qish, o‘zlashtirish, tushunish, tushuntirish va boshqa subektiv holatlar ham mavjuddir.

O‘z navbatida badiiy asarning til sathi fonetik, leksik (semantik), grammatisk (morphologik va sintaktik), stilistik va boshqa bir qator jihatlarni qamrab oladi. Badiiyat tilda aks etadi. Lekin bu badiiyatni faqatgina nutqiy hodislardan, troplar yoki boshqa tasviri vositalardangina iborat emas. Obrazlilik tekshirilganda tildagi turli poetik elementlar bilan birlikda asarning kompozitsiyasi, rivoya usuli va boshqa jihatlarga ham e’tibor beriladi.

Badiiy matnni lingvistik analiz qilishda quyidagi tamoyillar muhim sanaladi:

- badiiy matniga g‘oya va mazmun, obrazlar tizimi va tili nuqati nazaridan kompleks tarzda qarash;

---

<sup>24</sup> В.В.Виноградов . “Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика”. - М. Издательство академии наук СССР

- badiiy matnga konkret-tarixiy yondashish, ya'ni tilidagi o'z davriga xos leksik qatlam hamda so'z birikmalarini, gap qo'riliishlaridagi o'ziga xoslikni inobatga olish;
- -badiiy asar tiliga voqyelikni in'ikosi ettiruvchi o'ziga xos shakl hodisasi sifatida qarash;
- -badiiy asrning retsepienitga, ya'ni kitobxon faoliyatiga, uning muallif bilan "hamkorligi" hamda badiiy matn kitobxon tafakkurida kengayish hodisasiga diqqat qaratish;
- -matn talqinida bitta usulni mutloqlashtirmaslik, boshqa analiz yo'sinlari borligini ham esda saqlash lozim.
- Badiiy matnni lingvistik analizi turlicha bo'lishi mumkin. Qaysidir tadqiqotda lingvistik kommentariy, ya'ni so'z va so'z birikmalarini izohi ustivorlik qiladi. Bevosita lingvistik analizda estetik qiymatga ega tasviriy vositalar, obrazlilik, kalit so'zlar, trop yoki frazeologik birliklar tekshiriladi. Shuningdek, badiiy mant kompleks ravishda – asar g'oyasi, shakl va mazmuni badiiy asar tiliga aloqadorlikda tekshiriladi. Bunday tahlil so'zning matndagi hayotini to'laqonli tadqiq qilishga imkon beradi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. -М. 1979.
2. Еремина Л.И. О языке художественной прозы Н.В.Гоголя. -. М. «Наука». 1987.
3. Карим Б. Насрдаги назокат. // Ўзбек адабий танқиди. XX аср адабиётшунослиги. Антология. Turon-Iqbol. –Т. 2011.
4. Олимов М. Хозирги ўзбек адабиётида пафос муаммоси. Т. 1994.
5. Ражабов Д. Бадиий образ ва ритм табиати. Бухоро. 2002.
6. Солижонов Й. Нутқ ва услуб.-Т. Чўлпон. 2002.
7. Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. -Т.:Фан, 1973. -166 б.

8. Қодиров П. Тил ва эл. –Т. Ғафур Гулом номидаги нашриётматбаа уйи. 2005.
9. Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғуналиги. –Т. “Мумтоз сўз”. 2011.
10. Эркин Воҳидов. Сўз латофати. Тошкент. “O‘zbekiston”. 2014.
11. Аҳмад Аъзам. Тил номуси. Тошкент. “Akademnashr”. 2014.

#### **4-AMALIY MASHG‘ULOT**

#### **STRUKTURAL-ANALIZ METODINING ASOSLARI VA NAMOYANDALARI**

**REJA:**

**18.O‘zbek adabiyotshunoslida turli adabiyotshunoslik metodlari mavjudligini aniqlash mashg‘uloti**

**19.Adabiy-ilmiy hodisa va uni nomlash masalasi**

**20.Badiiy asarga ijtimoiy yondashuv usuli ommalashgani sabablarini muhokama qilish**

**21.O‘zbek adabiyotshunosliga muqtaillik yillarida kirib kelgan modernistik metodlarni o‘rganish tajribasi**

**22.Yangicha ilmiy-tadqiqot metodlarga asos bo‘ladigan mavjud adabiy**

**Tayanch tushunchalar:** adabiyotshunoslik metodlari, biografik metod, adabiy portretlar, badiiy asarga ijtimoiy yondashuv usuli, yangicha ilmiy- tadqiqot metodlari.

**Amaliy mashg‘ulotdan maqsad:** O‘zbek adabiyotshunoslida turli adabiyotshunoslik metodlari mavjudligini aniqlash mashg‘uloti; Badiiy asarga ijtimoiy yondashuv usuli ommalashgani sabablarini muhokama qilish; O‘zbek adabiyotshunosliga mustaqillik yillarida kirib kelgan metodlarni o‘rganish tajribasi; Yangicha ilmiy-tadqiqot metodlarga asos bo‘ladigan mavjud adabiy hodisalar bahsi.

Adabiyotshunoslikda turli yo‘nalishdagi metodlar mavjud. Badiiy asarni tahlili va talqini uchun adabiyotshunos turli usullarni bilishi lozim. Badiiy asar

muallifini tadqiq etadigan metodlardan boxabarlik tahlilga yordam beradi. Har bir metodning nazariy asoslari, asoschilar, talqindagi individual qirralari o‘rganish dolzarb sanaladi.

Adabiyotshunoslikdagi biografik metod tamoyillarining ishlab chiqilishi va, umuman, bu metodning badiiy asarlarni o‘rganishga tatbiq etilishi fransuz tanqidchisi va shoiri Sharl Ogyusten Sent-Byov (1804-1869) nomi bilan bog‘lanadi. Jurnallarda bosilgan maqolalaridan uning “Dushanba kunlaridagi suhbatlar” (1851-1862), “Yangi dushanba kunlari” (1863-1870) nomli bir qancha kitoblari yuzaga keladi. Sent-Byov 24 yoshida “XVI-asr fransuz poeziyası va teatrining tarixiy va tanqidiy obzori” tadqiqotini yozadi. Olimning yana bir muhim asari “Imperiya davrida Shatobrian va uning adabiy guruhi” (1861) deb nomlanadi. “Adabiy portretlar” (1836-1839) nomli («Литературные портреты»). Критические очерки. М. 1970) kitobi biografik metod tamoyillari asosida yozilgan. Bu kitobida Sent-Byov o‘rta asrlar fransuz adabiyotini, 16-asr poeziyasini, klassiklardan Kornel, Rasin, Molyer, Lafonten ijodini, 18 --asr yozuvchilari - Volter, Didro, Bomarshe, Russo ijodini, 19 asrdan Shatobrian, Gyugo, Myusse, Jorj Sand va Flober ijodini tadqiq etadi. Adiblarning biografiyası bilan ijodini bir butunlikda talqin qiladi.

Sent-Byov o‘zining biografik yo‘nalishda yozgan adabiy-tanqidiy maqolalarida har bir yozuvchi hayoti va aniq bir asariga talqiniga alohida e’tibor beradi. Zотан, “Adabiy portretlar” to‘plamida: “Meni har doim xatlar, suhbatlar, fikrlar, xarakterlarning o‘ziga xos turli fazilatlari, ma’naviy-ruhiy qiyofasi; bir so‘z bilan aytganda - mashhur yozuvchilarning biografiyasini o‘rganish o‘ziga jalb etib keldi”<sup>25</sup> degan fikrlarni yozadi.

Biografik, psixologik va psixoanalitik metodlarning talqin imkoniyatlari katta. Ijodkor hayotidagi ma’lum bir voqeа-hodisalar uning yozgan asarlarida qaysidir tarzda o‘z aksini topadi. Psixologik metodning o‘ziga xos xususiyati eng

<sup>25</sup> Сент-Бёв III. Литературные портреты. Критические очерки. -М., 1970. Стр.313.

avvalo, psixologiya fani bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu metodda nafaqat badiiy asar qahramonlari ruhiyati, psixologiyasi, balki muallif ruhiyatini ham qiyosiy o‘rganish joiz bo‘ladi. Psichoanalitik va fenomenologik metodlarning inson ruhiyati bilan bog‘liq.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Хализев В. Е. Теориялитературы. Учебник.-М.: «Вышая школа», 1999
2. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. - Т.: «Ўзбекистон», 2014.
3. Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. –Т. “Академнашр”. 2014.
4. Каримов Б. Руҳият алифбоси. –Т. Ғафур Ғулом номидаги нашриётматбаа ижодий уйи. 2018.
5. Каримов Н. XX аср манзаралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009
6. Норматов У. Ижод сехри. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти. 2007.
7. Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. «Фан», 2006.

**Quyidagi she’rlarni o‘zbek adabiyotshunosligidagi yetakchi metodlar asosida tahlil qiling.**

**Cho‘lon she’rlarini tahlil qiling va savollar tuzing:**

---

### **ALDANISH**

**(Разочарование)**

Besh yillik yonishim bir yil uchunmi?

Erkalab o‘tkuvchi bir yel uchunmi?

Ko‘zimga ko‘ringan sarobmi edi?  
 Men shunga aldanib tog‘larmi oshdim? Syevgimning  
 boqchasi xarobmi edi? Shu boqcha ichida yo‘lmi  
 adashdim?

Ko‘zimni o‘rag‘an kiprikmi edi Yoki ko‘k  
 tusida pardami edi?

Ko‘ngil shu choqqacha tirikmi edi?  
 Jonim ko‘klardami, tandami edi?

Qo‘limni tegizdim.... Odam edi-ku! Ko‘zimda  
 o‘ynag‘an bir nur edi-ku!

Sezgim-da sog‘, tetik, bardam edi-ku!  
 Bo‘ynimga qo‘l solg‘an bir hur edi-ku!

Nega men sevmadim? O‘t emasmidi?  
 Shul o‘t ichidagi men emasmidim?

Ka’bamga osilgan but emasmidi?  
 Butni “Tangri” degan men emasmidim?

Men uni xayoliy, totli bir sevish,  
 Ilohiy bir muhabbat, ishq bilan sevdim. Besh yil!  
 Shuning uchun besh yil anglayish... Yonish,  
 kuyinishlarim... oh, endi bildim.

Oh, endi bildim, kim barchasi xayol, Barchasi  
 bir totli, rohat tush ekan. Ket, yo‘qol  
 ko‘zimdan, haqiqat, yo‘qol, Bag‘rimga  
 botmoqda og‘uli tikan.

Chindan-da men u kun yolg‘izmi qoldim, Chindan-da u  
 o‘tli sevgi bitdimi?

Chindan-da turmushdan og‘izmi oldim?

Chindan-da umidim butkul ketdimi?  
 Chindan-da ko‘nglimda sevgi o‘tlari  
 Cho‘g‘siz o‘chib qolgan shamdek o‘chdimi?  
 Chindan-da ka’bamning sanam, butlari  
 Kul-parcha bo‘ldimi, butkul ko‘chdimi?  
 Chindan-da men bukun sevmasmi bo‘ldim?  
 Chindan-da muhabbat o‘timi so‘ndi?  
 Chindan-da men bukun tikanmi yuldim?\* Ko‘nglim bu  
 aldanishga, oh, qanday ko‘ndi?  
 Sevgimning yashashi bir yilmi edi?  
 “G‘uv” etib o‘tguvchi bir yelmi edi?

**1922-yil**

### **GO‘ZAL**

Qorong‘u kechada ko‘kka ko‘z tikib,  
 Eng yorug‘ yulduzdan seni so‘raymen.  
 Ul yulduz uyalib, boshini bukib,  
 Aytadir: "Men uni tushda ko‘ramen.  
 Tushimda ko‘ramen, shunchalar go‘zal, Bizdan-da  
 go‘zaldir, oydan-da go‘zal!.."  
 Ko‘zimni olamen oy chiqqan yoqqa,  
 Boshlayman oydan-da seni so‘rmoqqa,  
 Ul-da aytadirki: "Qizil yong‘oqqa  
 Uchradim tushimda, ko‘milgan oqqa.  
 Oqqa ko‘milganda shunchalar go‘zal,  
 Menden-da go‘zaldir, kundan-da go‘zal!  
 Erta tong shamli sochlrin yozib, Yonimdan o‘tganda so‘rab ko‘ramen.

Aytadir: "Bir ko'rib, yo'limdan ozib,

Tog'u toshlar ichra istab yuramen! Bir ko'rdim

men uni — shunchalar go'zal,

Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!..

Ul ketgach kun chiqar yorug'liq sochib,

Undan-da so'raymayn sening to'g'ringda.

Ul-da uyatidan berkinib, qochib,

Aytadir: "Bir ko'rdim, tushdamas o'ngda.

Men o'ngda ko'rganda shunchlar go'zal, Oydan-da

go'zaldir... mendan-da go'zal!..." Men yo'qsil na

bo'lub uni suyibmen?!

Uning-chun yonibmen, yonib-kuyubmen.

Boshimni zo'r ishga berib qo'yubmen,

Men suyub...men suyub...kimni suyubmen?

Men suygan "suyukli" shunchalar go'zal,

Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!!!"

### **BINAFSHA**

Binafsha senmisan, binafsha senmi,

Ko'chada aqchaga sotilgan.

Binafsha menmanmi? binafsha menmi,

Sevgingga, qayg'ungga tutilgan

Binafsha, nimaga bir ozroq ochilmay,

Bir erkin kulmasdan uzilding?

Binafsha, nimaga hidlaring sochilmay,

Yerlarga egilding, cho'zilding

Binafsha,

Ayt menga,  
 Kimlardir ularkim,  
 Ignani bag‘ringga sanchalar?  
  
 Binafsha,  
 Bir so‘yla,  
 U qanday qo‘llarkim,  
 Uzalar, hidlaylar, yancharlar?  
  
 Binafsha, shunchalik chiroyli yuzing bor,  
 Nimaga uzoqroq kulmaysan?  
  
 Binafsha, shunchalik tortg‘uvchi tusing bor,  
 Ko‘nglimga isriqlik to‘kmaysan?  
  
 Binafsha, yig‘lama, binafsha, kel beri,  
 Qayg‘ingni qayg‘umga qo‘shgil.  
  
 Binafsha, sen uchun ko‘kragim erk eri,  
 Bu erdan ko‘klarga uchgil.  
  
 Binafsha, go‘zalim, qayg‘ulim, kelmaysan,  
 Qayg‘ung zo‘r, qayg‘umni bilmaysan,  
 Menga bir kulmaysan.

### **KO‘KLAM QAYG‘USI**

Ey qorong‘i uzun qishning xayoli  
 Ko‘klam chog‘i ko‘zlarimda o‘ynama!  
 Ayriliqning chidab bo‘lmas maloli  
 Ko‘klam, maysa yuzlarida qaynama!  
 Bir oz... bir oz ko‘ngil beray ko‘klamda  
 Shaftolining go‘zal, qizil yuziga,

Bir oz... bir oz aldanmayin ko‘nglimda  
 Bosh chiqargan yigitlikning so‘ziga  
 Qarshimdagи kulib turgan yumshoq qiz  
 Ko‘m-ko‘k maysa o‘rtasida bir guldir.  
 Ko‘p yig‘ladim... yoshlаримни qator chiz  
 Va qarshimda go‘zal qizni bir kuldir!  
 Ko‘klam chog‘i ...  
 Sayroq bulbul sayramas,  
 Na uchunkim, tanburimning tili yo‘q.  
 Ul go‘zal qiz chin qarash-la qaramas,  
 Na uchunkim, umidimning yo‘li yoq.  
 Tillarimda har ko‘klamning qo‘shig‘i,  
 Yuragimda har go‘zalning sevgisi,  
 Ko‘zlarimda har qayg‘idan bir yig‘i,  
 Yuzlarimda aldanishning belgisi.  
 Yolg‘iz menmi ko‘klam chog‘i yig‘lagan?  
 Yolg‘iz menmi har umidda aldangan?  
 Yolg‘iz menmi ko‘kragimni tig‘lagan?  
 Yolg‘iz menmi sevinch bilan bo‘lмаган?  
 Ey ko‘klamning ko‘z tortg‘uvchi kelini,  
 Nima uchun yig‘latasan bir meni? ...

### AMALNING O‘LIMI

Ko‘nglimda yig‘lagan malaklar kimlar?  
 Sharqning onalari, juvonlarimi?  
 Qarshimda yig‘lagan bu jonlar kimlar?

Qullar o‘lkasining insonlarimi?  
 Na uchun ularning tovushlarida  
 O‘tgan asrlarning ohangi yig‘lar?  
 Na uchun yozmishning o‘ynashlarida  
 Har yurish ko‘nglimni nashtardek tig‘lar?  
 Kenglik hayollari uchdimi ko‘ka  
 Butun umidlarni yovlarmi ko‘mdi?  
 Mangu tutqunlikka kirdimi o‘lka?  
 Xayolda porlagan shamlarmi so‘ndi?  
 Kechaning jon olg‘ich qorong‘uligi,  
 Najod yulduzini xayolmi bildi?  
 Shuncha tutqunlarning haqqi, haqligi  
 Bir hovuch tuproqqa qurbanmi bo‘ldi?  
 Ohimning o‘tidan chiqqan shu'lalar,  
 Sharqning ko‘kragida bir topmasmi?  
 Ko‘ksimdan qisilib chiqqan na'ralar,  
 Uxlagan dillarga kulib boqmasmu?

### **SUYGAN CHOQLARDA**

Go‘zallarning malikasi ekansan,  
 Buni sening ko‘zlariningdan o‘qidim.  
 O‘qidim-da istiqbolim qushiga  
 Xayolimdan oltin qafas to‘qidim.  
 Gunafshalar qulog‘imga madhingni  
 So‘zlab-so‘zlab charchadilar, bitmadi...  
 Alamzada bulbul yig‘lab, kechalar

Alamingning so‘ngin tamom etmadi  
 Ko‘zingdagi hikoyaning mazmunin,  
 Shoir bo‘lsam, aytib-aytib yig‘lardim.  
 O‘shal, eski jarohatli qalbimni  
 Satrlarning nashtari-la tilardim  
 Xayolimning qip-qizildan kiyangan  
 Parilari, hurlarini ko‘rdingmi?  
 Alamimdan gullar ekkan yo‘llardan  
 Koinotga hayot sochib yurdingmi?  
 Yo‘llaringda she’r aytsa so‘lgan barg,  
 Qulog‘imga musiqalar keltirur.  
 Qachon sening musiqali ovozing  
 Sening meni suyganingni bildirur?

### **QALANDAR ISHQI**

Muhabbatning saroyi keng ekan, yo‘lni yo‘qotdim-ku,  
 Asrlik tosh yanglig‘ bu xatarli yo‘lda qotdim-ku.  
 Karashma dengizin ko‘rdim, na nozlik to‘lqini bordir,  
 Halokat bo‘lg‘usin bilmay, qulochni katta otdim-ku.  
 Ajab dunyo ekan bu ishq dunyosi, ayo do‘stlar,  
 Bu dunyo deb, u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku.  
 Uning gulzorida bulbul o‘qib qon ayladi bag‘rim,  
 Ko‘zimdan yoshni jo‘aylab, alamlar ichra botdim-ku.  
 Qalandardek yurib dunyoni kezdim, topmayin yorni,  
 Yana kulbamga qayg‘ular, alamlar birla qaytdim-ku.  
 Muhabbat osmonida go‘zal Cho‘lpon edim, do‘stlar,  
 Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku.

**Iqbol MIRZO SHAVKAT RAHMON**

Uchib-qo‘nib, uchib-qo‘nib shom-saharlar

Nafis san’at sahnasida poyga ketdi.

Shavkat Rahmon qayga ketdi, birodarlar,

Kapalaklar uchmaydigan joyga ketdi

Kim quyoshga soldi yerdan topib gavhar,

Kim ko‘ngliga shu’la istab oyga ketdi.

Shavkat Rahmon qayga ketdi, birodarlar,

Chiroq yonib o‘chmaydigan joyga ketdi.

Chorbozorda so‘z axtarar xaridorlar,

Birov katta ketsa, birov mayda ketdi.

Shavkat Rahmon qayga ketdi, birodarlar,

Yolg‘on qasam ichmaydigan joyga ketdi.

Ayollarning bandi bo‘ldi qaysi mardlar,

Qay darveshlar chog‘ir ila mayga ketdi.

Shavkat Rahmon qayga ketdi, birodarlar,

Tuhmat toshi tushmaydigan joyga ketdi

Nag‘malarni bas qilinglar, endi yetar,

Qo‘llaringiz bekor dutor-nayga ketdi.

Shavkat Rahmon qayga ketdi, birodarlar,

Osoyishta uxlaydigan joyga ketdi.

**OSMONDA YERDA**

Qishloqning machiti hayitdagidek tiqin. Eski, yirtiq – yamoq yaktaklik yalang oyoq dehqonlar machitning sahnida qoq yerda o‘lturadirlar. Narigi yoqda allaqancha tikka turg‘an kishilar ham bor. Unda-munda yelkasiga “beshotar” miltiq osqon milisa yigitlar ko‘rinadirlar. Jamoa ijroqo‘mining raisi shoshilib, pishilib u yoq-bu yoqqa chopib yuradir. Uning qo‘lida bir necha o‘zbakcha gazetalar, bir muncha xitobnama – shularning hammasini bir ip bilan bog‘lab olib ko‘tarib turubdur... uni hali ham “amin” deb atayadirlar.

Machitning eshididan besh-oltita yarog‘liq milisalar bilan bo‘lus ijroqo‘mining raisi kelib kirdi. Uning yelkasida yapo‘nlarning o‘zlariga o‘xshag‘an kalta bo‘ylik beshotarlari! Jamoa ijroqo‘li raisi yugurib kelganlarning yonig‘a turadir. Bo‘lus ijroqo‘li raisi jamoa ijroqo‘l raisini ko‘rgandan keyin:

- Xo‘sh, eshon amin boshlamadingizmi? – deb so‘raydir. Unga qarshi qishloq ijroqo‘m raisi kulub turub:
- Sizning kelishingizga qaratib turub edik, mingboshi dodxoh – deydir.
- Bo‘lmasa boshlay bering.
- Jamoa ijroqo‘m raisi shoshilg‘ancha xalq orasig‘a kirib ketadir...

Qiziq hol: O‘zbakistonning eng chekka va qorong‘i qishloqlarining birida bo‘layoutqon shu yig‘in (miting)da osmonda uchub yurush to‘g‘risida ma’ruza o‘quladur.

Yig‘in ochilmasdan ilgari qishloq yigitlari o‘zaro qiziq-qiziq gaplarni gapishtib o‘lturarlar edi. Shunday aylanib yursam o‘ntacha yosh yigit bir joyg‘a to‘planib olib, kulusha-kulusha gapdashardirlar:

- Osmonda uchamiz ekanda!
- Qig‘irg‘a o‘xshab a?
- Ha, xuddi qig‘irg‘a o‘xshab. Yo‘q e... Biz qig‘irdan ham o‘tub lochin bo‘lub ketamiz.
- Bedana tutub yeyishni ko‘rung bo‘lmasam.

- U vaqtida qig‘irning ham keragi yo‘q. -Kaklikni ayting.
- E-i-i... Maz-za!.

Ularning yonig‘a shahardan chiqqan bir tashviqotchi yigit boradir. Biroz haligilarning gaplarini eshitib turg‘ondan keyin haligi tashviqotchi yigit ham gapga aralashib, havo kemalarining iqtisod jihatidan keltiraturg‘on foydalarini tushunturub ketadir. Mana uning gaplari:

– Akalar, kaklik bilan bedana yeish-ku, qig‘ir bilan ham bo‘la beradi-ya; lekin mana bu to‘plang yillarida buzulg‘an yurtni, vayron bo‘lg‘on shahar va qishloqlarni obod qilish kerak. Hammadan ko‘ra mana bu tsh zarur...

Dehqon yigitlar uning gapini bo‘lub:

– Rost aytasiz mullaka, hammadan ham bu zarur. Biz endi boyag‘i gaplarni o‘ynashib, hazillashib aytkan edik-da!-deydirlar.

Shaharlik yigit so‘zida davom qiladir:

– Mayli, hazil ham kerak. Besh-olti yilan beri hazil yuzini ko‘rganingiz yo‘q. Gapimizga kelaylik: obodliq degan narsa bordi-keldi, qatnov bilan bo‘ladir. Qatnovg‘a ot-arava, poyiz, kema kerak. Bularning boralmayturg‘on joyig‘a tezlik bilan, osonliq bilan havo kemasi boradir. Masalan: Qoshqor tomong‘a, Avg‘on tomong‘a, uzoq yaylovlarg‘a, Maskov bilan Toshkant orasig‘a.

Moskov bilan Toshkantning o‘rtasi tez yuraturg‘on poyizga besh kechakunduzlik yo‘l bo‘lsa, havo kemaga bir kecha-kunduzlik yo‘l...

Dehqon yigitlar hayron bo‘lub, yoqalarini ushlaydirlar:

– Qaran-a... Xudoyo tavba...  
– Qani, hoy birodarlar, yaqinroq kelib o‘lturinglar, shahardan kelgan mehmonlar ba’z aytar ekanlar!

Jamoat ijroqo‘m raisining baland ovoz bilan aytkan shu gapidan keyin hamma duv-duv joyidan jilib davrani torroq oladir.

Yig‘inning o‘rtasidan bo‘lis ijroqo‘m raisining xirillagan kuchisz, bo‘g‘uq tovushi eshitiladir:

-Yaxshilab qulqoq beringlar, to‘palang, shovqun, g‘ovur-g‘uvur qilmanglar, o‘zinglarga foydalik gaplar bo‘ladi! Hamma jim.

Yig‘inning o‘rtasida bir sandal qo‘yulg‘an. Sandalning tevaragida uchta yog‘och eshak. Unda bo‘lus va qishloq ijroqo‘mlarining raislari, shahardan kelgan ikki musulmon tashviqotchi, bir ovpopoli qizil kamandir o‘lturadirlar. Jamoat va bo‘lis ijroqo‘mlarining mirzalari bilan 2-3 ta milisa yigitlar ham o‘sha joyda...

Maskavdami Toshkandami o‘qub yotqan yosh bir yigit – “fo‘rma” kiyim ustidan yozliq shoyi to‘p kiygani holda, sekingina sandal (tapcha)ning ustiga chiqadir. Tutula berib oyoqlari bind-bandidan ajralg‘an, so‘lqillab qolg‘on sandal, yigit chiqishi bilan u yoq-bu yoqqa qing‘g‘ayib qo‘yadir... Yigit bir-ikki pilanglab olib, sandalga qoraydir-da, uyatqanidan yengilgina qizarib kular...

-Tog‘alar, akalar, otalar!...

Yigitning jaranglagan, toza kuchlik ovozi shu so‘zlarga qanot qoqib, yiroqyiroqlarg‘a olib ketadir...

So‘z tugagandan keyin ijroqo‘m raislariga ergashib bir muncha kishi sekingina, erinchaklik bilangina chappak chalib qo‘yadir.

Sandalga yana bir yigit chiqadir. Tajangligi yuzlardan belgili bo‘lg‘an bu oruq va qotma yigit, muallim bo‘lsa kerak, birdan baland ovoz bilan so‘z boshlab, maorif masalasidan tushadir...

Yigit qizdi; sandal lang-lang qiladir. Yigitning qo‘llari u yoq-bu yoqlarg‘a uchub, barvasta qimirlab turadir. Yuzlari qipqizardi; terlar dona-dona bo‘lub, yuzlarida ko‘piklashadi...

Yig‘ilg‘onlar jim, hech kim qimirlamaydir.

Yigit yig‘ilg‘onlarning og‘ir joylaridan, yaralariga nashtar bo‘lub tegaturg‘on narsalardan gapirdi shekilli... Dehqonlar orasida yenglari bilan ko‘zlarini artkanlar bo‘ldi...

Yigit so‘zini tamom qilib tushkandan keyin ijroqo‘m raislari chappak chalmadilar; nimaga desangiz, ularning yenglari ham dastro‘mollari ham ko‘zlarida edi... Ovro‘pali kamandir ilgari va’z aytkan yigitdan so‘radi: -Nimaga bular yig‘laydirlar?

-Va’z ta’sirlik bo‘ldi.

-Nima to‘g‘risida gapirdi o‘rtog‘imiz?

-Bilmaslik, tushunmaslik to‘g‘risida...

Bunga rosa 6 oy bo‘ldi. Bir zamon qish vaqtida yo‘l usti to‘g‘ri kelib qoldiyu, o‘sha qishloqdan o‘tdim.

Menga tanish selijroqo‘m raisi bir kecha meni olib qoldi, kechasi gulxan qilib o‘lturub ko‘b kishilar bilan guaplashdim.

Orada menga eng ma’qul bo‘lg‘on bir yigit bor edikim, u ham bo‘lsa – o‘sha qishloqda shu yil ochilg‘on yangi maktabning mudiri va muallim! Muallim qishloq bolalaridan xursand. Ularni maqtab:

-Favqulodda iste’dod bor. Miyalari hech narsa bilan zaharlanmag‘an; toza, keng. Xuddi o‘zlarining talalarig‘a o‘xshaydir! – dedi.

O‘tkan kuz haligi yig‘indan 1-2 oy keyin havo kemaning uchub o‘tkanini ko‘ribdirildar. Shuni mehmonxonaga to‘plang‘an dehqonlar juda g‘alati qilib aytib berdilar.

Ular xiyli vaqtgacha “azkiya” qilishdilar, “payrav” bog‘lashdilar, bir – birlarini chandishlar. Kulishdek.

Men ham dunyo-olamning ahvolidan xiyli gapirib berdim. Ishqilib chekka va qorong‘i qishloqlarda yurub ham osmon bilan yerni chaynashdek...

*Cho‘lpon**1924-yil dekabr***ADABIYOTLAR:**

1. Abdulhamid Cho‘lpon. *Kecha*. T.: O‘zdavnashr, 1936.
2. Cho‘lpon. *Yana oldim sozimni*. T.: Adabiyot va san’at. 1991.
  3. Каримов Б. Икки даҳо – икки бебаҳо. Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси” нашриёти. 2020 йил. 5 б.т.
4. Каримов Н. XX аср манзаралари. – Т.: Ўзбекистон, 2009.

v. **KEYSLAR BANKI**



### KEYSLAR BANKI

**Keyslar uchun “keys-stady” metodi asos sanaladi.** “Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” — aniq vaziyat, hodisa, “stadi” — o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nimanatija (What).

**Modul bo‘yicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi.**


**1-keys.** Biografik va psixologik metodlarning eng asosiy farqli qirralari nima?

**2-keys.** Psixoanalitik metodning ilmiy-nazariy asoslari to‘g‘risida ma’lumot bering.

**3-keys.** O‘zbek adabiyotshunoslida muallifni o‘rganish yo‘lida yozilgan asarlar qaysilar?

**4-keys.** Adabiyotshunoslarda badiiy asar mohiyatini oydinlashtirishga qaysi usullar ko‘proq foyda beradi?

## VI.GLOSSARIY



**GLOSSARY**

<b>Termin</b>	<b>O‘zbekcha izohi</b>	<b>Ingлизча изоҳи</b>
<b>Adabiyot</b>	Arabcha so‘z bo‘lib, u “odob” (ko‘plik shakli “adab”) so‘zidan olingan.	It is an Arabic word derived from the word “adob” (plural form “adab”).
<b>Adabiyotshunoslik</b>	Bu so‘z ikki qismdan iborat bo‘lib, u “adabiyot bilan shug‘ullanish”, “adabiyotni o‘rganish” ma’nosini anglatadi. Bundan ayon bo‘ladiki, adabiyotshunoslik adabiyot haqidagi fandir.	This word consists of two parts and means "engaging in literature", "studying literature". It is clear from this that literary studies is a science about literature.
<b>Adabiyot tarixi</b>	Adabiyotning taraqqiyoti tamoyillarini, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlarini, ijodkorlarning ijodiy faoliyatini o‘rganadi.	He studies the principles of the development of literature, the specific characteristics of each period, the creative activities of creators.
<b>Adabiyot nazariyasi</b>	adabiyot va ijtimoiy hayot orasidagi bog‘liqlikni, so‘z san’atining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan bog‘liq holda rivojlanishini, adabiy tur va janrlar tabiatini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, badiiy asar	The connection between literature and social life, with the development of the personal society of the art of speech depending on studies the development, the nature of literary types and genres, their specific features, the structure of an

	tuzilishi, uni tashkil etuvchi qismlarni, asarning tili, ifoda uslubini, badiiy-tasviriy vositalarni, adabiy yo‘nalish, adabiy uslub, adabiy maktab, ijodkorning badiiy mahorati kabi masalalarni o‘rganadi.	artistic work, its constituent parts, the language of the work, the style of expression, artistic and visual tools, literary direction, literary style, literary school, artistic skill of the creator.
<b>Adabiy tanqid</b>	Yaratilayotgan asarlarning g‘oyaviyestetik qimmatiga baho beradi. Adabiy jarayonda paydo bo‘layotgan o‘zgarish, yo‘nalish, uslublarni aniqlaydi. Asarlarning kishilar did, tafakkuriga ta’siri haqida fikr bildiradi.	It evaluates the ideological and aesthetic value of the works being created. It determines the change, direction, styles that appear in the literary process. He comments on the influence of works on people's taste and thinking.
<b>Filologiya</b>	grekcha so‘z bo‘lib, philo - sevaman, logos - so‘z, bilim demakdir.	Is a Greek word, philo means love, logos means word, knowledge.
<b>Obraz</b>	So‘zning o‘zagi “raz” (chiziq) bo‘lib, undan “razit”(chizmoq, yo‘nmoq, o‘ymoq), undan “obrazit”(chizib, o‘yib, yo‘nib shakl yasamoq) paydo bo‘lgan. Ana shu “obrazit” so‘zidan “obraz” atamasi vujudga kelgan. Bu	The root of the word is "raz" (line), from which "razit" (to draw, carve, carve) and from it "obrazit" (to draw, carve, carve and make a shape) appeared. It is from this word "obrazit"

	<p>so‘z “umuman olingan tasvir” ma’nosini bildiradi. Obraz ham umumlashgan, ham individuallashgan xususiyatni o‘zida gavdalantirgan hodisadir.</p>	<p>that the term "image" was born. This word means "general image". An image is a phenomenon that embodies both generalized and individualized features.</p>
<b>Badiylik</b>	<p>Hodisalarni hayotiy, jonli manzaralarda, kishini ta’sirlantiradigan, unda tasavvur uyg‘otadigan qilib tasvirlash. Badiylik barcha san’at turlariga xos hodisa.</p>	<p>Events are vital, lively in the scenery, which impresses a person, in it describe in a way that arouses imagination. Artistry is a phenomenon characteristic of all types of art.</p>
<b>Badiy to‘qima</b>	<p>Obrazning ichki-tashqi qiyofasi, maqsad, intilishlarini namoyon etuvchi voqealarni o‘ylab topishdir.</p>	<p>It is to come up with events that show the internal and external appearance, purpose, aspirations of the image.</p>
<b>Realistik obrazlar</b>	<p>Xarakter-xususiyatlari, xatti-harakatlari hayotdagि kishilarga mos keladigan obrazlar.</p>	<p>Characters whose characteristics and actions correspond to people in life.</p>
<b>Romantik obrazlar</b>	<p>Ijodkorlarning orzu-xayollarini ifoda etgan kishilar siymosidir. Ularda</p>	<p>It is the image of people who express the dreams of creators. They show</p>

	ijodkorlarning orzuumidlari, jamiyat to‘g‘risidagi, kishilar haqidagi niyatlari namoyon bo‘ladi.	the dreams of creators, their intentions about society and people.
<b>Xayoliy-fantastik obrazlar</b>	Bu obrazlarda ijodkorlarning hayotga ideal munosabati, dunyoqarashi ifodalangan bo‘ladi. Xayoliy-fantastik obrazlar mo‘jizaviy, ilohiy xususiyatlar egasi qilib ko‘rsatiladi. Xalq dostonlari, ertaklaridagi qahramonlarni xayoliy- romantik obrazlarga o‘xshab ketadi.	These images express the artists' ideal attitude to life and worldview. Fictional characters are shown as possessing miraculous, divine properties. The heroes of folk epics and fairy tales are similar to fantasy-romantic characters.
<b>Majoziy obrazlar</b>	Muayyan narsa-hodisalar qiyofasini umumlashtirib ifodalovchi ramziy obrazlardir. Jumladan, so‘fiyona adabiyot asarlarida yor deyilganda Xudo nazarda tutiladi. Gul, lola muhabbat, sevgi izhori ramzi sanaladi.	These are symbolic images that summarize the image of certain things and events. For example, in works of Sufi literature, God is meant when it is mentioned. A flower, a tulip, is considered a symbol of love, a declaration of love.
<b>Allegorik obrazlar</b>	Majoziy obrazlarning biri sanaladi. Allegorik obrazlar, odatda, masal va ertaklarda bo‘ladi. Masal, ertaklarning asosiy qahramonlari esa hayvonlar, jonivorlardir. Ularda ayrim odamlarning fe'l-atvoridagi kamchilik,	One of the figurative images is considered. Allegorical images are usually found in parables and fairy tales. For example, the main characters of fairy tales are

	illatlar ko'rsatiladi.	animals. They have a flaw in the character of some people, vices are shown
<b>Xarakter</b>	Badiiy asardagi barcha qahramonlar, jumladan, badiiy xarakter darajasiga ko'tarilmagan qahramonlar ham personaj hisoblanadi.	All characters in a work of art, including characters who have not risen to the level of a fictional character, are considered characters.
<b>Personaj</b>	-biron bir faoliyat, ishning mazmuni va rejasi. O'quv fani mazmunining qisqacha izohi.	any activity, content and plan of work. A brief description of the content of the subject.
<b>Shakl va mazmun</b>	voqealarning tashqi ko'rinishini aks ettirish orqali ularning ichki mohiyatini gavdalantirish.	embodying their inner essence by reflecting the external appearance of events.
<b>Mavzu</b>	Ijodkor tanlagan hayotiy voqealar, u yoritgan asosiy muammolarning umumlashmasi. Adabiy asar uchun asos qilib olingan fikr va maqsad uning mavzusidir.	A summary of the life events chosen by the creator, the main problems he covered. The main idea and purpose of a literary work is its theme.
<b>G'oya</b>	Ijodkor maqsadini boshqarib, uning qarashlari, hodisaga yondashishlarini ma'lum bir izga solib turadigan ana shu hodisa.	It is this event that directs the goal of the creator and leaves a certain mark on his views and approach to the event.
<b>Konflikt</b>	lotincha conflictus degan so'z bo'lib, "to'qnashish" degan	The Latin word conflictus means "to

	<p>ma’noni bildiradi. Ziddiyat, to‘qnashuv hayot taraqqiyotini ta’minlovchi asos bo‘lgani singari badiiy konflikt ham asarning qiziqarli bo‘lishining yetakchi vositasidir.</p>	<p>collide". Just as the conflict is the basis for the development of life, the artistic conflict is the leading means of making the work interesting.</p>
<b>Kompozisiya</b>	<p>lotincha compositio so‘z bo‘lib, “tuzilish, qurilish, tarkib” demakdir. Badiiy asar kompozisiyasiga quyidagicha ta’rif-tavsif berish keng tarqalgan: “badiiy asar qismlari, detallari, badiiy tasvir vositalarining ma’lum maqsad asosida muayyan tartibda joylashtirilishi”.</p>	<p>The Latin word compositio means “structure, construction, composition”. It is common to define the composition of a work of art as follows: “arrangement of parts, details, artistic image means of a work of art in a certain order based on a certain purpose”.</p>
<b>Syujet</b>	<p>Fransuzcha sujet so‘z bo‘lib, “narsa, mazmun, mavzu” degan ma’noni bildiradi. Asar mazmunini tashkil etadigan, qahramonlar o‘rtasidagi aloqa, munosabatlar tizimi.</p>	<p>Sujet is a French word that means “thing, content, subject”. The system of communication and relations between the characters that makes up the content of the work.</p>
<b>Fabula</b>	<p>lotincha fabula so‘z bo‘lib, masal, hikoya qilish demakdir. Badiiy asar fabulasi deganda asar uchun asos bo‘lgan hayotiy material nazarda tutiladi. “Fabula —</p>	<p>The word fabula is a Latin word, which means to tell a story. The fable of a work of art refers to the life material that is the basis for the work. It is also called "a fable</p>

	<p>asar voqealarining mantiqiy jihatdan uzviy bog‘liqlikdagi yaxlit silsilasi” ham deyiladi. O‘z ma’no va mohiyatiga ko‘ra bu ikki termin bir-biriga sinonimik xarakterga ega bo‘lib, hozirgi adabiyotshunoslikda <b>syujet</b> termini faol qo‘llaniladi. <b>Fabula</b> termini esa astasekin iste’moldan tushib qolmoqda”.</p>	<p>- a coherent series of logically connected events of a work." According to their meaning and essence, these two terms are synonymous with each other, and the term plot is actively used in modern literature. The term "fabula" is gradually falling out of use.</p>
<b>Ekspozisiya</b>	<p>lotincha expositio so‘z bo‘lib, “tushuntirish” degan ma’noni anglatadi. Voqealar kechgan joy, davrning ijtimoiy manzarasi, qahramonlar unib-o‘sgan muhit shartsharoiti kabilar tasviri ekspozisiya deb yuritiladi. Ekspozisiya asarning istalgan o‘rnida bo‘lishi mumkin.</p>	<p>The Latin word expositio means "to explain." The place where the events took place, the social landscape of the time, the characters</p> <p>The image of the conditions of the environment in which it grew is called exposition.</p> <p>Exposition of the work can be in any position.</p>
<b>Tugun</b>	<p>Badiiy asarda qahramonlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning paydo bo‘lishi. Tugun, ko‘pincha, qahramonlarning ilk bor uchrashuvi yoki biror</p>	<p>The emergence of conflicts between characters in a work of art. A knot is often formed when the characters meet for the first time or when</p>

	jiddiy muammo yuzasidan tortishishi tufayli paydo bo‘ladi. Voqealar tuguni faqat qahramonlar o‘rtasida emas, qahramonning aynan o‘zining o‘y-kechinmalari bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.	they fight over a serious issue. The knot of events can be connected not only between characters, but also with the thoughts and experiences of the character.
<b>Voqealarning rivoji</b>	Syujetdagi voqealarning ma’lum tugundan so‘nggi rivojlanish jarayoni. Tugun to‘satdan yuzaga kelganday bo‘lishi mumkin. Biroq voqealarning rivoji uzoq davom etadigan jarayon.	The process of development of events in the plot from a certain node to the last. A knot may appear suddenly. However, the development of the event is a long process.
<b>Perepetiya</b>	Syujet voqealari rivoji davomida paydo bo‘lgan yangi tugunlar yoki chigalliliklar.	New knots or entanglements that appear during the development of plot events.
<b>Voqealar kulminasiyasi</b>	asar syujetidagi voqealarning eng yuqoriga ko‘tarilib, asosiy qahramonlar xarakteri, qiyofasini ko‘rsatadigan epizod. Yechim - syujet voqealari va qahramonlar taqdirining hal bo‘lishini gavdalantiruvchi epizod	An episode that rises to the top of the events in the plot of the work and shows the character and appearance of the main characters. The solution is an episode that embodies the events of the plot and the resolution of the fate of the characters.
<b>Muqaddima</b>	muallif o‘quvchiga o‘z maqsad-muddaosini ma’lum	the author informs the reader of his purpose

	qilib, asari haqida tushuntirish, izohlar berishi.	and scope and gives explanations and comments about his work.
<b>Xotima</b>	qahramonlarning asar syujeti voqealari tamom bo‘lgandan keyingi taqdiri haqida ma’lumot beruvchi qismi	the part that informs about the fate of the characters after the events of the plot of the work are over
<b>Portret</b>	fransuzcha portrait so‘z bo‘lib, “tasvir” degan ma’noni bildiradi. Badiiy asarda portret qahramon obrazini yaratishga asos bo‘ladigan omillar orasida eng muhimidir. Chunki yozuvchi voqealarda ishtirok etayotgan, o‘ylayotgan, qanaqadir maqsadlari bo‘lgan qahramon qiyofa, ko‘rinishini albatta gavdalantiradi. Qahramon portreti uning suratini ko‘rsatish uchungina emas, balki ruhiy dunyosidagi holat, o‘zgarishlarni anglash, tushunish uchun ham zarur vosita bo‘ladi.	the French word portrait means "image". A portrait in a work of art is one of the most important factors that form the basis for the creation of a hero's image. Because the writer certainly embodies the appearance and appearance of the hero who is participating in the events, who is thinking, who has certain goals. The portrait of the hero is not only for showing his image, but also a necessary tool for realizing and understanding the situation and changes in his spiritual world.
<b>Detal</b>	Detal qahramon portretini emas, uning fe’latvorini ko‘rsatishda ham ijodkor e’tiborni qaratgan personajlar	Not only the detailed portrait of the hero, but also his character, the comments on the appearance of the

	<p>ko‘rinishi, qiyofasi xususidagi mulohazalar ularning tashqi jihatlari haqidagina emas, ichki holatlari to‘g‘risida ham muayyan tasavvur olish imkonini beradi. Bu esa alohida ahamiyat kasb etadi. Detal qahramon xaraktersajiyasini yorqinlashtirgani singari, joy manzaralarini aniq gavdalantirishga ham asos bo‘ladi.</p>	<p>characters, which the creator paid attention to, allow us to get a certain idea not only about their external aspects, but also about their internal conditions. This is of particular importance. Just as the details highlight the character of the hero, it is also the basis for the accurate embodiment of the scenery.</p>
<b>Sayyor syujet</b>	<p>bir xil mavzu, bir xil qahramonlar taqdiri naql qilingan asarlar. Sayyor syujet barcha milliy adabiyotlar tarixida mavjud hodisa</p>	<p>works with the same theme, the fate of the same characters. Traveling plot is a phenomenon present in the history of all national literatures</p>
<b>Badiiy asar tili</b>	<p>adabiy til me’yorlariga tayanadigan, umumxalq tiliga asoslangan, hamma uchun tushunarli ifodalarni qamrab olgan, ijodkorlar tomonidan jilolangan til. Badiiy asar tili ilmiy asarlar tilidan tasviriylik, emosionallik, obrazlilik, aforizm kabi xususiyatlari bilan farq qiladi.</p>	<p>a language based on the norms of the literary language, based on the universal language, including expressions understandable to everyone, polished by creators. The language of artistic works differs from the language of scientific works by features such as imagery, emotionality, imagery, and</p>

		aphorism.
<b>Dialog</b>	yunoncha dialogos so‘z bo‘lib, “ikki kishi o‘rtasidagi so‘zlashuv” degan ma’noni anglatadi.	the Greek word dialogos means "conversation between two people".
<b>Jargon</b>	fransuzcha jargon so‘z bo‘lib, “buzilgan til” degan ma’noni bildiradi. Binobarin, jargon sun’iy, yasama tildir. U muayyan guruh kishilari doirasidagina qo‘llanadi. Jargon so‘zlar ham barcha kishilarning nutqida ishlataladigan so‘z, iboralardan tarkib topgan bo‘ladi.	is a French slang word meaning "broken tongue". Therefore, jargon is an artificial, artificial language. It is used only within a certain group of people. Slang words are made up of words and expressions used in the speech of all people.
<b>Metonimiya</b>	ikki tushuncha o‘rtasidagi yaqinlikka asoslangan o‘xshashsiz ko‘chim. Metonimiya yunoncha metonomadzo so‘z bo‘lib, “qayta nomlash”dir	a unique movement based on the affinity between two concepts. Metonymy is the Greek word metonomadzo, meaning "to rename."

## VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI



## **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

### **I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қат’ият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд.– Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta'lif to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta'lif muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydag'i “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdag'i “Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847- sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-sonli Farmoni.

### **III.Maxsus adabiyotlar**

1. Rasulov A. Badiiy asarga yondashuv asoslari. (O‘quv qo‘llanma). T., 2003.
2. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi (O‘quv qo‘llanma). T.: Muharrir, 2011.
3. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. «Sharq» nashriyoti. 2004.
4. Хализев В. Е. Теория литературы. Учебник.-М.: «Высшая школа», 1999
5. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – М., 1989.
6. Гадамер Г.Г. Актуалност прекрасного. – М., 1991.
7. “Jahon adiblari adabiyoti haqida”. – Т.: Ma’naviyat, 2010.
8. Yoqubov O. So‘z. –T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi. 2019
9. Karimov B. Abdulla Qodiriy fenomeni. –T. “Info Capital Group”. 2019.
10. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. –T. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2018.
11. Karimov N. XX asr manzaralari. – T.: O‘zbekiston, 2009
12. Normatov U. Ijod sehri. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
13. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. «Fan», 2006.
14. Sim-sim (Mutolaa sirlari). –T:; “OYDIN” nashriyoti. 2021.
15. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. Toshkent. “Akademnashr”. 2011.

16. Sharq mumtoz poetikasi (H.Boltaboev talqinida). -T. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” dalvat ilmiy nashriyoti. 2008.
17. Теории, школы, концепции. М. 1975.
18. Ensiklopediya modernizma. – М.: “Eskamo”, 2002.
19. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. «Ma’naviyat». 2002
20. Quronov D., Rahmonov B. G‘arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. – T: “Fan”, 2008.
21. “O‘zbek adabiy tanqidi” Antologiya. -T., “Turon-Iqbol”. 2011.
22. Hojiahmedov. A. Mumtoz badiiyat malohati. -T., Sharq.1999
23. Eshonqul J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. “Fan”.-T.: 2011.

### **III. Elektron ta’lim resurslari**

1. [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
2. [www.aci.uz](http://www.aci.uz).
3. [www.ictcouncil.gov.uz](http://www.ictcouncil.gov.uz).
4. [www.lib.bimm.uz](http://www.lib.bimm.uz)
5. [www.Zyonet.Uz](http://www.Zyonet.Uz)
6. [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com)
7. [www.acs.org](http://www.acs.org)
8. [www.nature.com](http://www.nature.com)
9. <http://www.kornienko-ev.ru/BCYD/index.html>.

### VIII.TAQRIZLAR



Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ulaning malakasinioshirish tarmoq markazi "O'zbek tili va filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" yo'nalishi kursi o'quv reja, dastur va o'quv uslubiy majmuasiga

### **TAQRIZ**

O'zbekiston Respublikasi milliy ta'lif sohasida o'ziga xos islohotlarni amalgalash oshirish bugun dolzarb sanaladi. Hozirgi o'zbek adabiyotshunosligini dunyo adabiyotshunosligidagi yangi va zamonaviy ma'lumotlar bilan boyitish uchun oliy o'quv yurtlarining pedagog kadrlarni qayta tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirishning o'quv dasturlariga dunyodagi eng ilg'or talqin usullarini egallash lozim bo'ladi.

Ta'lif sohasidagi odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi talab etmoqda. Respublikada ta'lif tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lif va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lif va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Mazkur "O'zbek tili va filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" yo'nalishidagi o'quv reja, dasturining mazmun-mundarijasi bilan tanishganda yuqoridagi e'tirofimiz haqligiga yana bir bora amin bo'ldik. Kursning maqsad va vazifalari tadrijiy tamoyil asosida, aniq rejada o'z aksini topgan. Tinglovchi-pedagoglarning kurs yakunida egallashi lozim ko'nikma, malaka hamda kompentatsiyalari orasida jahondagi yetakchi adabiy tizim va konsepsiyalardan xabardor bo'lish, adabiyot va folklor munosabatlarining nazariy-metodologik muammolarini bilish kabilarning o'rinni ushbu kursning ilmiy-nazariy va amaliy salohiyati ancha shakllangani va ma'lum tajribaga egaligini ko'rsatmoqda.

"Adabiyotshunoslikda modernistik analiz metodlar klassifikatsiyasi" deb nomlangan birinchi mutaxassislik modulida modernistik analiz metodlar klassifikatsiyasi haqidagi muhim tushuncha va tamoyillar, metodlarning adabiyotshunoslik ilmida tutgan o'rni, badiiy asarning formal qirralarini o'rganadigan metodlar haqida bat afsil ma'lumot berilgan.

"Oliy ta'lilda mumtoz she'r tuzilishini o'qitishga innovatsion yondashuv" deb nomlangan ikkkichi moldulda sharq mumtoz adabiyotida she'r tuzilishi, mumtoz she'r nav'lari, oliy ta'lilda aruz tizimini o'qitish muammolari, aruzning

nazariy asoslari haqida umumiy ma'lumot, mumtoz qofiyani o'qitish masalalari, mumtoz qofiya asoslari, uning tarkibiy qismlari, aruzda vasl, imola, taslim tushunchalari, rukn va uning turlari, bahrlar tasnifi kabiqator mavzular doirasida fanning mazmun-mohiyati yoritilgan.

Mutaxassislik modullaridan "O'zbek adabiyoti tarixini davrashtirish masalalari" modulida esa o'zbek adabiyoti tarixini davrashtirishning nazariy-metodologik masalalari, diniy oqimlar va islomgacha bo'lgan qalimgi turkiy adabiyotni davrashtirish tamoyillari, qoraxoniylar davri adabiyotining shakllanish omillari, g'aznaviylar davri adabiyotining shakllanish manbalari haqida o'quv uslubiy majmuasida to'liq ma'lumotlar berilgan.

Tinglovchilar o'quv kursi so'ngida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, shuningdek, mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha muhim ko'rsatma va tavsiyalar o'rinni olgan. O'quv dasturini tuzishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida o'zbek olimlari qatori dunyodagi taniqli soha mutaxassislarining asarlari, shuningdek, sohaga oid internet saytlaridan foydalanilgani ham mazkur dastur va o'quv uslubiy majmuasining mukammalligini ta'minlovchi omillardandir. Xulosa qilib aytganda "O'zbek tili filologiyasi: o'zbek adabiyotshunosligi" o'quv dasturi va o'quv uslubiy majmuasini ta'lim jarayoniga tatbiq etish mumkin.

**Taqrizchilar:**



F.f.d.,prof. M.Abdullayeva

F.f.d.,prof. S.Meliyev

F.f.d.,prof. J.Eshonqul



**Curriculum Review on Uzbek Literary Studies at Retraining Center and  
Professional development of Faculty Members under the Uzbek Language and  
Literature University**

First of all, it should be noted that the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi has been making great achievements and results in the scientific and pedagogical direction, despite the fact that not much time has passed since its establishment. Therefore, the opening of the Retraining Center and Professional development of Faculty Members is also one of the famous institutions in Uzbekistan.

This curriculum sounds very interesting when I have had a look at it's content. The goals and objectives of the course are reflected in a clear plan based on the certain principle. The curriculum consists of three modules such as "Classification of contemporary approach in Literary Studies", "Innovative approach to teaching the structure of classical poetry in higher education", "The problems of classification of the history of Uzbek literature".

The goals and objectives of the course are reflected in a clear plan based on the certain principle. The competences that faculty members should acquire are included at the end of the course. All three models consist in very important topics, such as the role of literary analyses in understanding literary text, the structure of poetry in Eastern classical literature, types of classical poetry, problems of teaching aruz in higher education, the theoretical and methodological issues of classification of history of Uzbek literature which plays very important role in understanding main direction of the Literature.

I think the curriculum of Uzbek Literary Studies was successfully formed by professional teachers and it will be very useful for faculty members who are teaching in this filed.

A handwritten signature in black ink, appearing to read "Oldfield".

**Professor A. Oldfield**  
**Castol Carolina University**  
**the head of the Department of World**  
**Literature, USA**